

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti**

«5440100-Veterinariya» ta'lim yo'nalishi»

AMRIDINOV DOSTON TO'YCHIBOYEVICh

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Payariq tumani sharoitida qo'ylar trixostrogilyoz kasalligining davolash va
oldini olish choralari**

Ilmiy rahbar:

Dosent T.I.Tayloqov

**Veterinariya, zootexniya va
qorako'lchilik fakulteti**

**“Hayvonlar kasalliklari va
parazitologiya” kafedrası mudiri**

dekani _____

_____ dosent B.M. Eshbo'riyev

dosent. X.B. Niyozov

«_____» _____ 2015 yil

«_____» _____ 2015 yil

№ _____ - sonli yig'ilish bayoni

SAMARQAND – 2015

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
1.1. Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash.....	39
2. Adabiyotlar tahlili.....	41
2.1. Kasallik qo'zg'atuvchilarining tuzilishi.....	54
3. Shaxsiy tadqiqotlar.....	57
3.1. Materiallarni tekshirish uslublari.....	57
3.2. Tadqiqot natijalari.....	57
3.3. Olingan natijalar tahlili.....	59
3.4. Albazen suspenziyasining iqtisodiy samara- dorligini aniqlash.....	61
4. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi....	64
5. Hayot faoliyat xavfsizligi.....	70
5.1. Mehnatni muhofaza qilish.....	70
5.2. Fuqarolar mudofaasi.....	71
6. Menejment asoslari.....	75
7. Xulosa.....	78.
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	79
9. Internet ma'lumotlari.....	85.

1. Kirish

Davlatimiz rahbari I.A. Karimov har doim qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta ahamiyat berib keladi. Respublika aholisining chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida chorvachilik-ning barcha sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor berish lozim. Oliy majlisning X sessiyasi kun tartibiga boshqa muhim masalalar bilan bir qatorda ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligida bozor islohotlarini keskin chuqurlashtirish muammosini echish masalasi ham kiritilgan. Bu nima bilan bog'liq: Avvalo bugungi kunda qishloq xo'jaligining iqtisodiyotimizdagi, hayotimizdagi o'rni buni taqozo etmoqda. Hozir agrar tarmoq, ya'ni ichki mahsulotning to'rtidan bir qismini ishlab chiqarmoqda. Mamlakatimiz ishlab chiqarishni va intellektual salohiyatining yarmidan ortig'i muayyan tarzda bevosita qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jalik mahsuloti mamlakatga valyuta tushum-larining 55 foizidan ortig'ini ta'minlaydigan muhim eksport manbalari-dan biri hisoblanadi. Bu masalaning iqtisodiy jihatida iqtisodiy sohada mamlakatning qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholisining nafaqat katta qismining, balki butun respublika aholisining turmush darajasi, uning moddiy farovonligi qishloq xo'jaligidagi ishlarning ahvoliga uni rivojlantirishning tezkorligi va samaradorligiga bog'liq.

Eng muhimi bu muammoning siyosiy jihatidir. Bugun biz shuni tobora chuqur anglab yetayapmizki, umuman joyimizning yangilanishi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi va ko'p jihatdan qishloq xo'jaligida islohotlarning nechog'li samarali kechayotgani, qishloq hayotining barcha jabhalarida nechog'li chuqur kirib borayotgani bilan bog'liq. Bu vazifalarni hal qilish uchun nafaqat amaliyot, balki fan oldida katta vazifalar turibdi.

O'zbekiston Resublikasining iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi qudrati uning buyukligiga qarab aniqlanadi. Mustaqillikning dastlabki yillari-dayoq

mamlakatimizda tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning o'ziga xos yo'li tanlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta tamoyillarda bu o'z aksini topgan.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir

Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga qo'yilgan asosiy masala – bu O'zbekistonning o'tgan 2014 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va mamlakatimizning 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlab olishdan iborat.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab

chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyasiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profisit bilan bajarildi.

Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014 yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi.

Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshdi.

So'nggi yillar davomida «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2011 yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi.

O'tgan 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda.

2014 yilda mazkur Jamg'arma tomonidan 2 ming 400 ta tadbirkorlik subyektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi. Jamg'arma ko'magida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnomalar asosida o'tgan yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilindi.

Jamg'arma tomonidan tadbirkorlarga tashqi bozorlarni o'rganish va chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, shuningdek, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha faol yordam berilmoqda.

Shu borada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini barchamiz albatta yaxshi tushunamiz.

Mulkni ro'yxatga olish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun lisenziya olish, qurilishga ruxsat berish va elektr ta'minoti tarmoqlariga ulanishda «yagona darcha» tamoyilini amaliyotga joriy etish tobora kengayib bormoqda.

Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlarisezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklarasiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.

Sanoatning engil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko'p soni ilgarigi 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani kichik biznesni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo'ldi.

2014 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so'mdan ortiq yoki 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p, shu jumladan, 2 trillion so'mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu o'tgan yilga qaraganda 39 foiz ko'pdir. So'nggi besh yilda kichik biznesni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko'paydi.

Xususiy tadbirkorlarning xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, bunday mahsulotlarni birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini ko'paytirish hisobidan sezilarli ravishda kengaytirildi. Masalan, 2014 yilda ular tomonidan Respublika tovar-xomashyo birjasida qariyb 3trillion so'mlik yoki 2013 yilga nisbatan 1,6 barobar ko'p xomashyo va materiallar sotib olindi. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlar birja savdolari orqali o'zlari ishlab chiqargan 1 trillion 500 milliard so'mlik mahsulotni sotdi, bu ko'rsatkich 2013 yilga qaraganda 1,7 barobar ko'pdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yili, fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olmaganda, 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlari tashkil etildi, ularning umumiy soni esa 195 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 2 barobar ko'pdir.

Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2000 yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi.

2014 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etildi. Bu yaratilgan jami ish o'rinlarining yarmi demakdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda. 2000 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Iqtisodiyot sohasida izchil amalga oshirayotgan ana shunday chora-tadbirlarimiz o'zining yuksak samarasini bermoqda.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan, xarid qobiliyati bo'yicha hisoblanadigan yalpi ichki mahsulot hajmiga qarab aniqlanadigan iqtisodiy rivojlanish borasidagi yangilangan reytingda O'zbekiston dunyoning 190 ta davlati orasida 2010 yildagi 72-o'rindan 66-o'ringa ko'tarildi.

Mamlakatimiz 2014 yilda biznesni yuritish sharoiti bo'yicha reytingda 8 pog'onaga, soliqqa tortish borasida esa 61 pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yilda biznes yuritishni engillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha yetakchi o'nta mamlakat qatoridan joy oldi.

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikasiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investisiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi.

2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investisiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSh dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investisiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rt dan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalardir.

Investisiya dasturini amalga oshirishda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy investisiyalarning yildan-yilga faol ishtirok etayotgani barchamizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Birgina o'tgan yilda bunday investisiyalar hajmi 10,3 foizga o'sib, 4 milliard 300 million dollarni yoki jami investisiyalar hajmining qariyb 30 foizini tashkil etdi.

O'tgan yili tijorat banklarining investisiyaviy faoliyati ham kengaydi. Ular tomonidan 1 milliard 700 million dollar yoki 2013 yilga nisbatan 20 foiz ko'p investisiyalar yo'naltirildi.

Jami investisiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflandi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investisiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investisiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

2014 yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

Ularning qatorida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Jizzax viloyatida 760 ming tonna portlandsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish», «80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo'yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish», «Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota sexini qurish», elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to'liq miqyosda modernizasiya qilish», Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Mang'it» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish» va boshqa obyektlarni tilga olish mumkin.

O'tgan yilda yiliga 25 milliard kub metr gazni uzatish imkonini beradigan Markaziy Osiyo – Xitoy gaz quvurining 1 ming 830 kilometr uzunlikdagi uchinchi tarmog'i ishga tushirildi.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi

muhandislik va transport infratuzilmasi to'liq respublikamiz mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda.

Yo'l-transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish sanoatni jadal rivojlantirish va uning salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. 2014 yilda umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan 540 kilometr avtomobil yo'lini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. 116 kilometrdan iborat ikki polosali yo'l kengaytirilib, to'rt polosali qilib qayta qurildi, bu esa o'z navbatida ushbu yo'llarda qatnovni 3 barobar oshirish imkonini berdi.

O'tgan yili temir yo'llar qurish, rekonstruksiya qilish va elektrlashtirish, yuk va yo'lovchi tashiydigan temir yo'l transportini qayta tiklash va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish maqsadida 630 million dollardan ziyod mablag' o'zlashtirildi.

Bu mablag'ning yarmidan ko'pi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini barpo etish loyihasini jadal sur'atlarda davom ettirishga yo'naltirildi. Shu bilan birga, 240 kilometrlik temir yo'l qayta tiklandi, o'zimizda 650 ta yuk va 20 ta yo'lovchi tashish vagonlari ishlab chiqarildi, Qarshi temir yo'l vokzali rekonstruksiya qilindi. Toshkent – Samarqand va Samarqand – Toshkent yo'nalishi bo'yicha qatnaydigan «Afrosiyob» tezyurar poyezdida 2014 yilda 180 mingdan ziyod yo'lovchi o'z manziliga yetkazildi.

Aviasiya transportida yuk tashish hajmi 126 million 300 ming tonna-kilometrni tashkil qildi yoki 2013 yilga nisbatan 8,5 foizga oshdi. 2014 yilda «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi dunyodagi 270 dan ortiq aviakompaniyani o'zida birlashtirgan Xalqaro havo transporti assosiasiyasining (IATA) teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Navoiy shahri aeroporti negizida tashkil qilingan xalqaro logistika markazi Yevropa, Hindiston, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoga aviasiya orqali yuk tashishni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu markaz foydalanishga

topshirilganidan buyon o'tgan vaqt mobaynida 200 ming tonnadan ziyod yuk tashildi.

Qishloq xo'jaligida erishilgan yutuqlar haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlashni istardimki, bu sohada biz qo'lga kiritgan ulkan marralar, avvalo, fermerlarimiz, qishloq xo'jaligi mutaxassislari va qishloq taraqqiyoti bilan bog'liq tarmoqlarda mehnat qilayotgan yuz minglab yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati, bilim va tajribasining samarasidir.

2014 yilda qishloq mehnatkashlari qanday og'ir sinovlarga duch kelganini hammamiz yaxshi bilamiz. Sovuq kunlar odatdagidan ko'proq bo'ldi. Bu, ayniqsa, bahor oylarida yanada ko'proq sezildi. Yozdagi suv tanqisligi, vegetasiya davridagi kuchli shamol va bo'ronlar, kuzning ancha erta va salqin kelgani soha mehnatkashlari uchun ko'plab jiddiy muammolarni tug'dirdi.

Ana shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, dehqon va fermerlarimizning mardonavor mehnati, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida birinchi marta 8 million 50 ming tonnalik yuksak g'alla xirmoni bunyod etildi.

Fursatdan foydalanib, ushbu yuksak minbardan turib, paxtakor va g'allakorlarimizga, barcha-barcha qishloq mehnatkashlariga qahramonlik namunasi bo'lgan, mashaqqatli va sharaflı mehnati uchun o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan yana bir bor chuqur minnatdorlik izhor etishni ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Ma'lumki, biz qishloq xo'jaligini isloh etishda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashga alohida e'tibor bermoqdamiz. Bu vazifa eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, nafaqat qishloq mehnatkashlari, balki butun O'zbekistonimiz aholisining moddiy

farovonligini oshirish bebaho boyligimiz bo'lgan yerimizning unumdorligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog'liqdir.

O'tgan davrda bu borada ko'rilgan choralar natijasida 1 million 700 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi. Bu jami ekin ekiladigan maydonlarning yarmidan ziyodi demakdir. Ana shunday ishlar tufayli sizot suvlari eng og'ir darajada, ya'ni, 2 metrgacha yuzada joylashgan yerlar qariyb 500 ming gektarga yoki uchdan biriga kamaydi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan yerlar esa 100 ming gektarga yoki 12 foizga qisqardi. Meliorasiya tadbirlari amalga oshirilgan ekin maydonlarida paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 2-3 sentner, boshqoli don ekinlari bo'yicha esa 3-4 sentnerga oshgani bu borada erishgan eng muhim natijamizdir.

Agarki bu raqamlarni gektarlarga ko'paytiradigan bo'lsak, amalga oshirgan ishlarimizning samarasi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligini tarkibiy o'zgartirish haqida so'z yuritganda, avvalo, paxta ekiladigan yerlarni optimallashtirish va boshqoli don ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik uchun ajratilgan maydonlarni kengaytirish hisobidan ekin maydonlari tarkibida o'zgarishlar amalga oshirilganini qayd etish joiz.

Masalan, Andijon, Kosonsoy, Chortoq, O'rta Chirchiq, O'zbekiston va Buvayda tumanlarida paxta ekin maydonlari qisman qisqartirildi, Asaka, Yangiyo'l va Jomboy tumanlarida paxta ekishdan butunlay voz kechildi. Shu asosda paxtadan bo'shagan 30 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerda don ekinlari, sabzavot, kartoshka yetishtirish yo'lga qo'yildi, bog' va uzumzorlar barpo etildi. Natijada 2012-2014 yillarda paxta yetishtirish hajmi saqlangan holda, sabzavot yetishtirish 16,3 foiz, poliz ekinlari 16,6 va meva yetishtirish qariyb 21 foizga o'sdi.

Yangi bog' va uzumzorlar barpo etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

2010-2014 yillar davomida qariyb 50 ming gektar maydonda yangi bog'lar, jumladan, 14 ming gektardan ortiq maydonda intensiv bog'lar, 23 ming gektarda uzumzorlar yaratildi. Intensiv bog'lar tashkil etish uchun Polsha, Serbiya va boshqa mamlakatlardan 6 milliondan ziyod ko'chat olib kelindi.

Bunday bog'larning ko'plab afzalliklarga ega ekani bugungi kunda amalda namoyon bo'lmoqda. Misol uchun, oddiy mevali daraxt ekilganidan boshlab dastlabki hosilini berguniga qadar odatda 4-5 yil o'tadi. Intensiv bog'dorchilikda esa daraxt ikkinchi-uchinchi yildayoq hosilga kiradi. 2011 yilda yaratilgan bog'larning har gektaridan 2014 yilning o'zida o'rtacha 300 sentnerdan hosil olingani va hosildorlik yil sayin ko'payib borayotgani buni tasdiqlaydi.

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermerlarni yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash hisobidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o'tish ushbu sohani barqaror va samarali rivojlantirishda eng muhim yo'nalish hisoblanadi.

Shu maqsadda qishloq xo'jaligi mashinasozligi tizimi butunlay qayta tashkil etildi, «O'zagrosanoatmashxolding» kompaniyasi tuzildi, soha korxonalari optimallashtirilib, ular qishloq xo'jaligida talab etilayotgan aniq turdagi texnika va mexanizasiya vositalari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi.

Toshkent traktor zavodining optimallashtirilgan ishlab chiqarish maydonlarida yangi korxona – «Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi» mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etildi. Bu yerda traktorlar, tirkama va paxta terish mashinalarining yangi modellari ishlab chiqarilmoqda.

Barchamizga ayonki, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirishda yetakchi o'rin tutishini ko'rsatmoqda.

2014 yilda bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi 15,7 foizga o'sdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 53 foizdan 54 foizga oshdi. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 50 foizdan ortig'i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda. Har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining, avvalambor, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari uchun tashkil etilayotgan ish o'rinlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i aynan mazkur soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bu borada xizmatlar tarkibi ham tubdan o'zgarib borayotganini ta'kidlash joiz. Mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan internet, kabelli televizion aloqa, masofaviy bank xizmatlari, qishloq xo'jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish kabi zamonaviy yuqori texnologiyalar asosidagi xizmat turlari aholi o'rtasida tobora ommalashib bormoqda.

So'nggi besh yilda an'anaviy maishiy va kommunal xizmatlar ulushi 16 foizdan 9,5 foizga tushdi, yuqori texnologiyalar asosidagi xizmatlar ulushi esa 21,2 foizga qadar ko'tarildi.

Yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar orasida keyingi yillarda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari boshqa sohalarga nisbatan jadal rivojlanayotganini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu xizmatlar hajmi so'nggi besh yilda 3,3 barobar, o'tgan yili esa 24,5 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz hayotida axborot-kommunikasiya texnologiyalarining alohida va muhim o'rin tutishini hisobga olib, 2013 yilda 2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikasiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar 2014 yilda mamlakatimizda barcha avtomat telefon stansiyalarini raqamli tizimga o'tkazishni yakunlash uchun zamin yaratdi.

Bu esa xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Aholi, jumladan, mamlakatimizning olis hududlarida yashayotgan aholining axborot-kommunikasiya texnologiyalari xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2014 yilda yurtimizda, xususan, Qo'ng'iroq, Boysun, Uzun, Mo'ynoq kabi olis tumanlarda 2 ming kilometrdan ziyod optik tolali aloqa tarmoqlari barpo etildi.

Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Bugungi kunda ular 10 million 200 ming kishidan oshdi yoki mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Respublikamizda internetning o'tkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirildi, internetga ulanish tezligi esa 1,5 marta ortdi. Shu bilan birga, undan foydalanish narxi 2013 yilga nisbatan 11,6 foizga kamaydi.

O'tgan yili 500 dan ortiq yangi bazaviy mobil aloqa stansiyalari o'rnatilishi hisobidan aloqaning ushbu zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan tizimi abonentlari soni qariyb 20 million kishini tashkil etdi, ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi qariyb 26 foizga ko'paydi.

Ayni paytda qishloq joylarda xizmatlar sohasi hali-beri yetarlicha rivojlanmaganini ham aytish joiz. Qishloqda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ko'rsatish hajmi shahardagidan hali-hamon sezilarli darajada ortda qolmoqda. Ayni paytda qishloq joylarda aloqa xizmati, bank-moliya va kommunal xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini ham unutmaslik darkor.

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi.

Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi toboraortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

Bu haqda so'z yuritganda, sobiq ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim. Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000 yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Bu o'rinda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning mezoni hisoblangan bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra, 10 barobar qilib belgilanganini aytib o'tish lozim.

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi. Misol uchun, O'zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko'rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35-0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o'zgarib bormoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, bugungi kunda yurtimizdagi oilalarning 94 foizi xolodilniklar, 84 foizi turli oshxona elektr jihozlariga, 63 foizi kir yuvish mashinalari, yarmidan ko'pi kompyuter, changyutgich, mikroto'lqinli pechlarga ega, uchdan bir qismi esa kondisionerlardan foydalanmoqda.

Mustaqillik yillarida aholining televizorlar bilan, ayniqsa, mutlaqo yangi avlod televizorlari – plazma ekranli rangli televizorlar bilan ta'minlanishi 1,6 barobar, engil avtomobillar bilan ta'minlanishi 3,5 marta oshgani ham oilalarimizning farovonligi yuksalib borayotganining yaqqol tasdig'idir. Bugungi kunda deyarli har ikki oiladan biri shaxsiy transport vositasiga ega va bu

mashinalar aynan yurtimizda ishlab chiqarilgani barchamizga mamnuniyat va g'urur bag'ishlaydi.

Qisqa vaqt ichida hayotimizga, deyarli har bir oilaga eng zamonaviy mobil telefonlarning bir necha yangi avlodi, noutbuklar, tyunerlar, DVD pristavkalari, sun'iy yo'ldosh orqali faoliyat ko'rsatadigan va kabelli televideniye, duxovkali elektr pechlar, muzlatgich kameralar, suv isitish boylerlari va boshqa mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar kirib keldi. Bugun biz bu narsalarga unchalik e'tibor ham bermaymiz va ularni odatdagi buyumlar sifatida qabul qilamiz. Holbuki, yigirma yil avval bunday ashyolar haqida hych narsa bilmasdik, hozirgi kunda esa ularsiz hayotimizni tasavvur ham qilolmaymiz. Eng muhimi, ushbu mahsulotlarning aksariyatini mamlakatimiz korxonalarida o'zimiz ishlab chiqaryapmiz.

Fuqarolarimizning uy-joy sharoitlari ham tubdan yaxshilanib bormoqda. Mamlakatimizning barcha hududlarida uy-joylar qurish sur'ati va ko'lami yil sayin kengaymoqda. Mustaqillik yillarida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,9 barobar oshdi.

Aholi soni ko'payib borayotganiga qaramasdan, odamlarni uy-joy bilan ta'minlashda jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydonini 12,4 kvadrat metrdan 15,4 kvadrat metrga oshirishga erishildi. Uy-joy fondining deyarli barchasi xususiy mulk sifatida aholi tasarrufida ekanini aytish lozim. Vaholanki, ko'plab rivojlangan davlatlarda oilalarning yarmidan ko'pi ijaraga olingan xonadon va uylarda yashaydi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibda uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli davlat dasturining amalga oshirilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu dastur doirasida 2014 yilda 11 mingta yangi turar joylar barpo etildi.

Bugungi kunda shaharlar, ayniqsa, qishloqlarda barpo etilgan, shiftlari baland, xonalari shinam va yorug' yangi uylar pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, ularni bunyod etishda zamonaviy qurilish va tom yopish materiallaridan foydalanilmoqda, ular zarur xo'jalik binolariga ega. Bunday qishloq uylari sifati va sharoitining qulayligi bilan hych bir jihatdan shahardagi uy-joylardan aslo qolishmaydi.

Shaharlarimizni kompleks qurish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Urganch, Qarshi, Termiz, Samarqand va boshqa ko'plab shaharlarimiz qiyofasi tubdan o'zgarib bormoqda.

Buyuk Britaniyaning nufuzli «Ekonomist» jurnalining bergan bahosiga ko'ra, O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 shahar orasida 58-o'rinni egalladi va jahon tasnifida yashash uchun eng qulay bo'lgan yirik shaharlar qatoriga kiritildi.

2014 yilda ijtimoiy sohada ham chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta'minlash va rivojlantirishga davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltirilmoqda.

Ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O'tgan yili hammasi bo'lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik lisey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi.

2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizasiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard

so'mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi.

2014 yilda bir qator yangi institut va fakultetlar, o'quv-ilmiy markazlar ochildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti va hududlardagi tibbiyot oliy o'quv yurtlari negizida Andijon, Buxoro, Samarqand va Nukus shaharlarida filiallariga ega bo'lgan Toshkent davlat stomatologiya instituti tashkil etildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti ochildi, shuningdek, ushbu institut qoshida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi tashkil qilindi.

Janubiy koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida Inxa universiteti tashkil etildi. Mazkur oliy o'quv yurtida axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy ta'minot mahsulotlari ishlab chiqarish, axborot tizimlari va kompyuter tarmoqlarini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

O'tgan yili oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning takomillashtirilgan tizimi joriy etildi, ya'ni test sinovlariga informatika bo'yicha savollar kiritildi, mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha baholash ballari oshirildi. Bu esa oliy o'quv yurtlariga tanlagan kasbini hisobga olgan holda, eng yaxshi tayyorgarlik ko'rgan abituriyentlarni saralab olish imkonini beradi.

Sog'liqni saqlash sohasida qishloq vrachlik punktlarining faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqildi. Bunday tibbiyot maskanlarining sonini yanada optimallashtirish, zamonaviy diagnostika va tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash va ularning mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Optimallashtirish natijasida kamquvvatli va samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan 243 ta qishloq vrachlik punkti tugatildi.

Tajriba tariqasida Bo'stonliq, O'zbekiston, Shahrisabz, Xiva va Jomboy tumanlarida patronaj tibbiyot hamshirasining o'z funksional vazifalarini nechog'liq to'liq bajarishi va faoliyatining yakuniy natijalaridan kelib chiqqan holda, uning ish samaradorligini reyting asosida baholash tizimi joriy etildi. Bu yil ushbu tajribani mamlakatimizning yana 18 ta tumanida qo'llash mo'ljallanmoqda.

Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlatimiz va jamiyatimizning eng muhim ustuvor vazifasi bo'lib qolmoqda. Bu borada skrining markazlari, viloyat ko'ptarmoqli bolalar shifoxonalari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan pediatriya tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va zarur jihozlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Onalar va bolalar tizimli asosda tibbiy tekshiruvdan o'tkazilmoqda.

Faqat 2014 yilda 6 million 500 ming nafar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar o'quvchilari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bu esa kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularni samarali davolash imkonini bermoqda.

Ana shunday amaliy ishlarimiz natijasida so'nggi o'n yilda rivojlanishida tug'ma nuqsonlari bo'lgan bolalar soni 1,3 barobar kamaydi. 6-15 yoshli bolalar orasida o'tkir yuqumli kasalliklar bilan og'rish 34,4 foizga, pnevmoniyaga chalinish 49,7 foizga, bronxit bilan xastalanish 32,8 va skolioz bilan kasallanish 32,7 foizga kamaydi.

2014 yilda 133 ta tibbiyot muassasasi yangitdan qurildi va rekonstruksiya qilindi. Guliston shahridagi viloyat onkologiya dispanseri, Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy markazi, Andijon shahridagi ko'ptarmoqli viloyat tibbiyot markazi, Nukus shahridagi Respublika silga qarshi kurash dispanseri va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ushbu maqsadlar uchun byudjetdan 400 milliard so'mdan ortiq mablag' va qariyb 30 million dollarlik xorijiy kredit va grant mablag'lari yo'naltirildi.

Koreya Respublikasi bilan yaqin hamkorlikda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari hududida yagona bo'lgan, eng yuqori texnologiyalar asosidagi tibbiyot asbob-uskunolari bilan jihozlanadigan ko'ptarmoqli zamonaviy bolalar tibbiyot markazi qurilishi boshlanganidan xabaringiz bor, albatta.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu borada sport inshootlarini har tomonlama rivojlantirish va ularni zamonaviy inventarlar bilan jihozlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda.

2014 yil mobaynida faqat Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari hisobidan 18 ta namunaviy sport obyekti va 73 ta maktab sport zali barpo etildi, 24 ta obyektida qariyb 100 milliard so'mlik rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda 2 millionga yaqin farzandlarimiz, shu jumladan, 840 mingdan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilari erishayotgan g'alabalar tobora ko'payib bormoqda. 2014 yilda sportchilarimiz 849 ta medalni qo'lga kiritdi, ularning 266 tasi oltin medallardir.

Bu haqda gapirganda, o'tgan yilning kuzida Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan, 45 davlatdan 13 ming sportchi qatnashgan XVII Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz 61 ta, jumladan, 12 ta oltin medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston terma jamoasi eng kuchli o'nta mamlakat qatoridan joy olganini mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardim. Sportchilarimiz ana shunday yutuqlari bilan Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga munosib hissa qo'shdilar va ularning qo'lga kiritgan marralari bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

Aholi bandligini ta'minlash, avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha zarur sharoitlar yaratish ijtimoiy siyosatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014 yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'rni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir.

O'tgan yilda mamlakatimiz ta'lim muassasalarining 600 mingdan ziyod bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi. Shunisi quvonarliki, yoshlarimizning aksariyat katta qismi o'z kelajagini kichik biznesda ko'rmoqda.

O'zingiz o'ylang, bir yilning o'zida shuncha yoshlarimizni, o'zimizning farzandlarimizni hayotda o'z o'rnini topishi uchun sharoit yaratib, qo'llab-quvvatlaganimiz – bu bizning eng katta yutug'imiz emasmi?

Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda “Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi, yuksak marralarni egallashimiz kerak?” degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim.

Bu borada, ish beruvchilar va o'quvchilarni keng jalb etgan holda, mehnat yarmarkalari, biznes g'oyalar tanlovlari o'tkazilayotgani hamda ularning g'oliblariga o'z xususiy ishini boshlash imkonini beradigan imtiyozli kreditlar ajratilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z biznesini yo'lga qo'yishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga qariyb 200 milliard so'mlik imtiyozli mikrokreditlar ajratildi. Bu 2013 yilga nisbatan 1,4 barobar ko'pdir.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan jarayonlar va birinchi navbatda, qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani, jahon bozorlaridagi vaziyatning tez o'zgarayotgani, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari, dunyoning ko'plab davlatlarida investisiya faolligining susayishi va o'sish sur'atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Shundan kelib chiqib, 2015 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

^ Biz o'z oldimizga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni 11,7 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini 11 foiz va nooziq-ovqat tovarlarini 12,1 foizga ko'paytirish, ushbu mahsulotlarni chakana savdo tarmog'i orqali sotishni 14,2 foizga oshirish vazifasini qo'ymoqdamiz.

Joriy yilda xizmat ko'rsatish sohasini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mo'ljallanmoqda. Xizmatlar ko'rsatish hajmini 15,6 foizga oshirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54,5 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda.

Ayni paytda inflyasiya darajasi 5,5 – 6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2014 yilga qaraganda sezilarli darajada pastdir.

2015 yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AQSh dollari hisobida 15 milliard 960 milliondollarini yoki 2014 yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga yetadi.

Ushbu mablag'larning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish obyektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el investisiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi

22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payadi.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Birinchi navbatda amalga oshiriladigan vazifalar qatoriga daromad solig'i stavkasini 7,5 foizga kamaytirish kiradi. Shu bilan birga, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi, sanoat korxonalarida bo'lganidek, 6 foizdan 5 foizga tushiriladi.

2010 yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, davlat va ijtimoiy institutlar hamda sud tizimini isloh etish borasidagi vazifalarni izchil amalga oshirish eng ustuvor yo'nalish bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikasiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizasiya va diversifikasiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur.

Ma'lumki, O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko'p marotaba boshidan kechirgan.

Shu bilan birga, to'qimachilik va engil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o'zlashtirish asosida, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz.

Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko'plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin.

Bu o'rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, engil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo'lgan tayyor to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmasevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardoqlash materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda tegishli vazirlik va idoralar, uyushmalar, kompaniyalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ishtirokida 2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizasiya va diversifikasiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin va qabul qilsin.

Ikkinchidan. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifadir. Barqaror iqtisodiy o'sish va mamlakatimizning kelajak istiqboli, aholining hayot darajasi va

sifati ko'p jihatdan ayni mana shu eng ustuvor vazifaning qanday hal etilishiga bog'liq.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida xususiy mulk va investisiyalar daxlsizligini ta'minlashning ishonchli huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish va ularning himoyasi uchun ko'p ish qilindi. Mulkdorlarga zarur sharoit va kafolatlar berish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish sohasi singari tarmoqlar, uy-joy fondi to'liq xususiy mulk egalari tasarrufiga o'tkazildi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan, oziq-ovqat, tikuvchilik mahsulotlari, to'qimachilik, charm-poyabzal, mebel va farmasevtika sanoati tarmoqlarida davlatning ulushi anchaga kamaytirildi.

Bugun hych kimga sir emaski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatining amaliyoti xususiy mulkning davlat mulkiga nisbatan har tomonlama ustunligini ko'rsatmoqda.

Xususiy korxonalarda sidqidildan mehnat qilishga undaydigan omillar va shaxsiy manfaatdorlik darajasi va eng asosiysi, o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijasi uchun mas'uliyat hissi butunlay boshqacha ekani barchamizga yaxshi ma'lum.

Xususiy sektorda mablag'lardan samarali foydalanilmoqda. Bu sohada yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz. Bularning barchasi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalarining asosiy maqsadidir.

Ming afsuski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali-hanuz turli ma'muriy g'ov va to'siqlar saqlanib qolmoqda, mansabdorlar

tomonidan ularning qonuniy manfaat va huquqlari buzilayotgani bilan bog'liq ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Shu sababdan biz xususiy mulk munosabatlari borasidagi qarashlarimizni mutlaqo o'zgartirish masalalarini qayta ko'rib chiqishimiz zarur. Shu asosda mustahkam huquqiy bazani xususiy mulk manfaatlariga moslashtirishimiz, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirishimiz, davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy tayanchiga aylanadigan xususiy mulkdorlarning keng qatlamini yaratishimiz kerak.

Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish yo'lidagi g'ov va to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan chora-tadbirlar qatorida, avvalambor, xususiy tadbirkorlar uchun xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash zarur. Buning uchun esa resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish lozim.

Yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan muntazam chop etiladigan, birinchi navbatda, Jahon bankining "Biznes yuritish" deb nomlangan ma'ruzasida e'lon qilinayotgan bizning biznes yuritish bo'yicha ko'rsatkichlarimizni tizimli asosda chuqur o'rganish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir aniq chora va takliflar ishlab chiqish, avvalo, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi va boshqa manfaatdor idoralarning muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Shuni tan olishimiz kerakki, xususiy mulkni rivojlantirish uchun uning ochiqlik darajasini va bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini aniqlash borasidagi baholash mezonlari haligacha ishlab chiqilmagan. Iqtisodiyot vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Markaziy bank, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa iqtisodiy idoralar bu masala bilan jiddiy shug'ullanishi zarur.

Ishonchim komilki, bu vazifalarning amalga oshirilishi, o'z navbatida, xususiy biznesni rivojlantirish, jamiyatimizdagi barqarorlikning mustahkam asosi hisoblangan mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishda va mustahkamlashda rag'batlantiruvchi yangi omil va imkoniyatlar yaratadi.

Uchinchidan. Iqtisodiyotimizda davlatning ishtiroki qay darajada ekanini tanqidiy baholash, uni strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish zarurligini alohida ta'kidlashni o'rinli deb bilaman.

Iqtisodiyot tarmoqlarida davlat ulushining mavjudligi va samaradorligini, boshqacha aytganda, "iqtisodiyotda davlat ishtiroki"ni har tomonlama tanqidiy tahlil qilish va shu asosda iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy sektor ishtirokini sezilarli darajada kengaytirish bo'yicha vazifalarimizni belgilab olish vaqti keldi.

Birinchi navbatda, avvalo, zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va iqtisodiy nochor, mahsulotlariga talab yo'qligi sababli to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatmayotgan davlat korxonalarini professional xorijiy investorlarga ularni qayta tiklash va ushbu korxonalar negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish majburiyati bilan "nol" qiymatida sotish zarur.

Bu o'rinda so'z iqtisodiyotning real tarmoqlaridagi texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish va ularning raqobatdoshligini oshirish talab etiladigan korxonalardagi davlat aktivlari haqida bormoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu toifaga kiradigan tarmoqlar, birlashma va korxonalarning ro'yxati tasdiqlanishi lozim.

Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi davlat ulushi mavjud bo'lgan barcha korxona va obyektlarni yana bir marta tanqidiy nuqtai nazardan qayta inventarizasiya qilishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yili qabul qilingan «Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga qanday obyektlar kiritilmaganini aniqlashi va real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida davlat ishtirokini tubdan qisqartirishni nazarda tutgan holda, 2015-2016 yillarda davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha yangi dasturni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi zarur.

To'rtinchidan. Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investisiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Eng avvalo, korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda ham mulkchilikning mazkur shakli tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida ayni paytda respublikamizda 1 ming 100 dan ortiq aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy ustav kapitali 11 trillion 700 milliard so'mdan ortiq bo'lib, so'nggi o'n yilda 5,3 barobar o'sdi.

Bugun shuni tan olish zarurki, aksiyalashtirish jarayonini rivojlantirish ko'lamining o'sib borayotgani korporativ boshqaruv va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidan tushadigan daromadlarni taqsimlash tizimi hamda xususiylashtirish jarayonining boshqa bir qator yo'nalishlarida hal etilmagan ko'plab muammolar mavjudligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bu, ayniqsa, aksiyalar paketlariga davlat egalik qilayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga taalluqlidir. Bunday jamiyatlarda aksiyadorlar, ayniqsa, minoritariylar kam hajmdagi aksiyalarga egaligi va aksiyalar paketlarining tarqoqligi tufayli boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonidan amalda chetda qolmoqda.

Buning natijasida ishlab chiqarish ustidan boshqaruvni ilgorigidek direktorlik korpusi amalga oshirmoqda. Ko'p hollarda direktorlik korpusi, shuni ta'kidlashimiz kerakki, o'z faoliyatida hali-beri eski tizim qolipidan chiqolmasligi, ishni zamon talab qiladigan usulda tashkil qilishdan uzoq bo'lishi ko'zga tashlanadi. Bunday holat boshqaruvchi kadrlarning yuqoridan buyruq kutib o'tirishiga, sustkashligi va tashabbus ko'rsatmasligiga sabab bo'lmoqda.

Bugun mamlakatimizda shunday amaliy tajriba to'plandiki, unga ko'ra, O'zbekiston sharoitida yurtimiz sarmoyadorlari bilan bir qatorda chet ellik investorlar aksiyalarga ega bo'lgan mulkchilik shakli eng maqbul bo'lib, har jihatdan o'zini oqlamoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda 90 dan ortiq davlatning xorijiy investorlari ishtirokida tashkil etilgan 4 mingdan ziyod korxona muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ushbu kompaniyalar O'zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma'lum.

O'zbekiston hududida to'liq chet el kapitali va korporativ boshqaruvning xorijiy usullariga asoslangan korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Mazkur xorijiy kompaniyalar tajribalarini chuqur o'rganishimiz va ularning tahlili asosida korxonalarimiz uchun korporativ boshqaruvning namunaviy tuzilmalarini yaratishimiz, real iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimini ayni shu asosda isloh qilgan holda, ularni amaliyotga faol joriy qilishimiz zarur.

Allaqachon o'z umrini o'tab bo'lgan, boshqaruvning sovet davriga xos eski va yaroqsiz rejali-taqsimot tizimi va lavozimlar nomenklaturasidan qat'iy voz

kechishimiz, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan tijorat direktori, moliya direktori, mijozlar bilan ishlash va xaridlar bo'yicha loyiha menejeri va boshqa yangi lavozimlarni xalqaro amaliyotga mos ravishda, ularning mansab majburiyati va vazifalarini aniq belgilagan holda, keng joriy etishimiz lozim.

Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi barcha manfaatdor tuzilmalar ishtirokida asosiy lavozim va kasblarning yangi klassifikatorini ishlab chiqishi kerak. Aynan ana shunday klassifikator bugungi yangi avlod professional kadrlarini tayyorlashning asosiy mezoniga aylanishi darkor.

Beshinchidan. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirishningeng muhim manbai va omilidir.

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqyealar mavjud mahalliy xomashyo bazasi asosida import o'rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlay olishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish borasida to'plagan tajribamiz bizning tashqi omillarga bog'liqligimizni kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorlarimizni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, valyuta resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muhim rol o'ynashini amalda tasdiqlamoqda.

Sanoat ishlab chiqarishida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmining jadal o'sib borayotgani buning amaliy tasdig'idir. 2005 yilda mahalliyashtirilgan mahsulotlar 9,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda bu ko'rsatkich qariyb 20 foizga yetdi.

Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligiga barcha manfaatdor vazirlik, idora, uyushma va kompaniyalarni keng

jalb etgan holda, 2015-2019 yillarga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni mahalliyashtirish va ishlab chiqarish bo'yicha dastur tayyorlash vazifasi topshiriladi.

Oltinchidan. Rivojlangan infratuzilmani tashkil etmasdan, birinchi navbatda, axborot-kommunikasiya tizimi, yo'l-transport va muhandislik-kommunikasiya qurilishini taraqqiy ettirmasdan turib, iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan o'zgartirishga erishish mumkin emas.

Shu nuqtai nazardan biz O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikasiya tizimini 2013-2020 yillarda kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz darkor. Internet tarmog'idan foydalanishning texnik imkoniyatlarini yanada oshirish, keng polosali optik tarmoqlarni kengaytirish va optik tolali aloqa tarmoqlarini qurish ishlarini davom ettirish, barcha hududlarni, shu jumladan, uzoq va chekka hududlarni raqamli televideniye ga o'tkazish ishlarini oxiriga yetkazish zarur.

Vazirlar Mahkamasi ushbu dastur ijrosini qat'iy nazoratga olishi hamda vazirlik va idoralar, pudratchi tashkilotlar tomonidan 2015 yilga belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi darkor.

O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan avtomobil yo'llari uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, «O'zavtoyo'l» davlat aksiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga avtomobil yo'llari qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, yo'llar bo'yidagi infratuzilmalarni rivojlantirish yuzasidan 2015 yil uchun belgilangan vazifalarni so'zsiz bajarish bo'yicha amaliy choralar ko'rish vazifasi topshiriladi.

Temir yo'l kommunikasiyalarini rivojlantirish borasida ham muhim vazifalar oldimizda turibdi. Yo'lovchi va yuklarni ishonchli hamda uzluksiz tashishni ta'minlash maqsadida 2015 yilda 260 kilometr temir yo'llarni qayta

tiklash ko'zda tutilmoqda. Sohada 13 ta investisiya loyihasini amalga oshirishmo'ljallanmoqda. 124,1 kilometrlik Angren – Pop elektrlashtirilgan yangi temir yo'lining qurilishi, 140 kilometrlik Maroqand-Qarshi va 325 kilometrlik Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, ikki tomonlama qatnovga ega bo'lgan Jizzax-Yangiye'r elektrlashtirilgan temir yo'l tarmog'i qurilishining ikkinchi bosqichini amalga oshirish kabi loyihalar shular jumlasidandir.

«O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksiyadorlik temiryo'l kompaniyasi Iqtisodiyot vazirligi, Toshkent va Namangan viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda Angren – Pop temir yo'lining o'z vaqtida va sifatli qurilishi ustidan alohida nazorat o'rnatish.

Ko'rib turganingizdek, oldimizda o'ta muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Ularni faqat o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga tayangan holda hal qilmasak, chetdan birov kelib hal qilib bermaydi. Eng muhimi, shu borada eskicha qolip va yondashuvlardan butunlay voz kechishimiz kerak. Bugungi zamonning talabi shuki, endi eskicha ishlab, eskicha yashab bo'lmaydi.

Bunday kayfiyat bilan yurgan odamlarni, avvalambor, rahbarlarni hayotning o'zi qabul qilmaydi. Bugungi kunda katta umid, orzu-maqсадlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo'shaman, deb belini mahkam bog'lab maydonga chiqayotgan, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, azmu shijoatli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak.

Ishonchim komilki, biz iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizasiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom ettirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish hisobidan o'z oldimizga qo'ygan marralarga albatta erishamiz.

Aholi farovonligi va turmush darajasini muttasil oshirish bilan bog'liq masalalar doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Ta'lim-tarbiya va tibbiyot muassasalarini yanada rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va bugungi kun talablari asosida jihozlash darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal rivojlantirish, aholini sifatli ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya tozalash tizimlari bilan ta'minlash biz uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlar uchun davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltiriladi. Bu o'tgan yilga nisbatan 4 trillion 100 million so'm yoki 22,5 foiz ko'p demakdir. Jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishga 34,3 foiz, sog'liqni saqlash tizimiga 14,2 foiz mablag' sarflanadi.

Joriy yilda keksa avlod vakillariga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga, muhtaram faxriylarimiz hayotiga daxldor muammolarni hal etishga alohida ahamiyat qaratiladi.

2015 yilga mamlakatimizda Keksalarni e'zozlash yili, deb nom berganimiz zamirida ham mohiyat e'tibori bilan ana shunday ezgu maqsadlar mujassam ekani, o'ylaymanki, barchamizga yaxshi ma'lum.

Hukumatimiz tayyorlayotgan dasturda keksa avlod vakillari, avvalo, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga ko'rsatiladigan tibbiy va ijtimoiy xizmat darajasi va sifatini oshirish, muhtojlarni yordamchi va reabilitasiya texnik vositalari bilan ta'minlash, tumanlar va mahallalarda qariyalarimiz uchun muloqot markazlari, ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, turli klublar tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilishi lozim.

Muxtasar aytganda, bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo'lgan mo'tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimiz, deb qabul qilishimiz darkor.

Shu borada mahallalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining keksalar va nogironlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatadigan tuzilmalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Bunda turli muassasa va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy ta'minot va tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur darajada nazorat qilish masalalari nazarda tutilishi kerak.

Biz mamlakatimizni isloh etish va yangilash borasidagi ishlarimizni davom ettirish va yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini izchil yuksaltirib borish bo'yicha 2015 yilda va undan keyingi yillarda o'z oldimizga yuksak, ayni vaqtda aniq maqsad va vazifalarni qo'ymoqdamiz.

Ishonchim komilki, ularning barchasi muqaddas va saxovatli zaminimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har qaysi insonning manfaatlariga to'la javob beradigan, chuqur hayotiy asosga, amalga oshirishning real imkoniyatlariga ega bo'lgan vazifalardir.

Ana shunday maqsad-muddaolarimizning ro'yobga chiqishi, mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik va totuvlik muhitining barqaror bo'lishi barchamizga, har birimizning o'z joyimizda bizga ishonib topshirilgan vazifani qay darajada mas'uliyat bilan ado etishimizga bog'liq ekanini unutmasligimizni istardim.

Mana shu ezgu maqsad yo'lida barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad yor bo'lishini tilayman.

1.1. Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash

Qo'ychilik Respublikamiz chorvachiligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa hozirgi go'sht mahsulotlarining tanqisligi davrida qo'ychilikni rivojlantirish biroz bo'lsada mavjud muammolarni engillashtiradi.

Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, gelmintoz kasalliklari jamoat chorvachiligida juda katta iqtisodiy zarar keltiradi. Ma'lumki, enzootiya davrida mollarning ko'pchilik qismi qirilib ketadi. Gelmintoz kasalliklari surunkali tarzda o'tib, bunda hayvonlar oriqlaydi, ularning go'sht mahsulotlarini miqdori kamayib, sifati pasayadi. Hayvonlar o'sish va rivojlanishdan qoladi.

Respublikamizda qo'ychilikni avj olib rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan obektiv sabablaridan biri – parazitlar kasalliklar, jumladan qo'ylar gelmintozlaridir. Qo'ylar gelmintozlariga qarshi kurashish ishlari so'nggi yillarda tadqiqotchi olimlar tomonidan (N.V. Badanin, I.X. Irgashev, A.O. Oripov, Sh.M. Mirzayev) barakali o'rganilib, yaxshi samara beruvchi fenotiazin – mis kuporosi, osh tuzi aralashmasi kashf yetilib, ishlab chiqarish jarayonida tadbqiq yetilishi natijasida ko'pchilik gelmintoz kasalliklar, jumladan kavshovchi hayvonlarning strongilyatoz kasalliklarining oldi olindi.

Sobiq Ittifoq parchalanib ketishi tufayli qorishma komponentlarining Rossiyadan O'zbekistonga olib kelinishi qiyinlashdi. Qorishma tarkibidagi ayrim komponentlar hozirgi paytda bo'yoq sifatida qo'llanilmoqda. Shu sababli aralashmani ishlab chiqarish sharoitida keng ko'lamda qo'llash imkoniyati bo'lmasdan qoldi. Buning oqibatida qo'ychilik xo'jaliklarida gelmintoz kasalliklarining tarqalishiga keng yo'l ochildi.

So'nggi yillarda qo'ylar gelmintozlarini tarqalish chegaralari kengaygan yekstensivlik va intensivlik darajasi ancha ortgan.

Qo'ylar gelmintozlarining bu tarzda ko'plab tarqalib ketishi Respublikamizda qo'ychilikka katta iqtisodiy zarar keltirilmoqda. Jumladan,

qo'ylarning mahsuldorligini pasayishi, og'ir invaziyalangan qo'ylarning nobud bo'lishi, jun mahsuldorligining kamayishiga, qo'zi olish ko'rsatkichlarini pasayishi, mahsulot birligiga. Yem-xashak sarfining ortishi kabi masalalar natijasida kelib chiqayotgan zararlar fikrimiz dalilidir.

Qo'ylar gelmintozlari O'zbekiston sharoitida ko'plab tarqalishiga asosiy sabablardan biri kasallik qo'zg'atuvchilariga qarshi kurashishda yuqori samara beruvchi fenotiazin - mis kuporosi va osh tuzi aralashmasini keyingi paytlarda amaliyot sharoitida qo'llanilayotganlidir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qo'ylar gelmintozlarining yepizootologiyasi hamda biologiyasini puxta bilgan holda samarali dori-larni qo'llab, qo'ylarda gelminsizlantirishni ilmiy asoslab berish Respublikamizda qo'ychilikdagi muhim muammolarni hal etishga yordam beradi.

Olib borilayotgan ishlarning maqsadi qo'ychilik tarmog'ida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida iqtisodiy murakkab bo'lib turgan bir davrda Respublikamizning sug'oriladigan tog', tog' oldi, dasht mintaqalarida qo'y-larda tez-tez uchrab turgan, katta zarar keltirayotgan strongilyatoz kasallik-larining paydo bo'lishi, mavjud resurs komponentlaridan foydalanishni ko'zda tutuvchi antigelmintik dorilarni qo'shib invaziyaga qarshi kurashish-ning samaraliroq usullarini ishlab chiqarishdan iboratdir.

2. Adabiyotlar taxlili.

Sobiq Turkiston o'lkasi, O'zbekistonning sharqiy, Qozog'istonning janubiy-g'arbiy hududida olib borilgan ekspedisiyada K.I.Skryabin (1916) qo'ylarning 8 turdagi oshqozon-ichak nematodalarini aniqdagan, shundan 3 turi - *Trihostrongilus axei*, va *Nayemonhus contortus* va *Nematodirus filicollis* trixostrongilidlarga mansub.

A.M.Petrov va Ye.S.Shaxovseva (1926) lar 1921 yilda Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo: va Surxondaryo viloyatlarida Marchallagia marshalli , Nayemonhus contortus, keng tarqalganligini aniqladilar. Bundan birinchi tur nematodalar ya'ni marshallagiyalar eng ko'p tarqalgan deb xulosa qilingan.

V.K.Kamenskiy (1929) Turkmanistonda 56-ta qo'yni to'liq gelmintologik yorib ko'rganda, ularda 17 turga mansub nematodalar mavjudligini aniqlab ular orasida Marchallagia marshalli, Nayemonhus contortus va Nematodirus filicollis keng tarqalgan turlar ekanligini e'tirof etgan. Bu parazitlar bilan qo'ylarning zararlanishi, ya'ni invaziyaning ekstensivligi (IE) yuqoridagi turlarga mutanosib 87,5; 62,9; 75,5; va 35,7% ga to'g'ri kelgan.

V.S.Yershov (1933) O'zbekistonnining janubiy viloyatlarida qorako'l qo'ylari organizmida 24 turdagi gelmintlar mavjudligini aniqladi.

Sobiq Ittifoqning turli ma'muriy xududlarida qo'ylarning gelmintofaunasink Y.V.Orlov hammualiflari bilan (1933), A.V.Yefimov (1933, 1946), S.N.Boyev (1939), V.I.Bondareva (1940) o'rganganlar. Ularning kuzatishlariga ko'ra (archa mintaqalarda qo'ylarning trixostrogilidlari, ayniqsa gemonxuslar. ostertagiyalar, trixostrogilyuslar, nematodiruslar va marshallagiyalar keng tarqalgan.

Uy va yovvoyi hayvonlarning, shu jumladan qo'ylarning gelmintofaunasi bo'yicha dastlab A.P.Fedchenko ekspeditsiyasi jarayonida tadqiqotlar olib borilgan. Bu ekspeditsiya materiallari esa chet el olimlari tomonidan chuqur o'rganilib taxlil qilingan: sestodlar bo'yicha materiallarni Krabbe, nematodalar va trematodalar bo'yicha esa Linstov elon qilgan. Shunda Linstov qo'y nematodalaridan Nayemonhus contortus, Trichocephalus ovis va Dictiocaulus filarialarini aniqlagan.

T.K.Beisov (1962-1964) sharqiy Qozog'istonda qo'ylar organizmida 21 turdagi trixostrogilidlar borligini aniqlaganlar. Ulardan *Ostertagia circumcincta*, *Trichostrongylus colubiformis*, *Marchallagia marshalli* tarqalgan deb e'tirof etadilar.

Ye.N.Yermolova (1953) Chimkent viloyatida 228 bosh qo'yni TGYo usuli bilan tekshirganda oshqozon-ichak tizimida parazitlik qiluvchi 37 turdagi nematodalarni topgan Muallifning e'tirof etishicha ko'p uchraydigan va qo'ylarni yuqori intensivlik bilan zararlaydigan parazitlar ekanligini, *Marchallagia marshalli*, *Nayemohus contortus* va *Nematodirus filicollis* esa ko'p uchrashiga qaramay, ular bilan zararlanish intensivligi past bo'lganini aniqlagan. Nematodiruslarning boshqa turlari *O.trifurcata* Ye.N.Yermolovaning mllumotiga ko'ra juda kamdan-kam uchraydigan gelmintlar qatoriga kiradi

Ye.N.Yermolova Chimkent viloyati sharoitida qo'ylar gelmintofaunasini o'rganish asosida 3 xil mintaqalar - janubiy qumloq-cho'l, shimoliy qumloq-cho'l va tog' oldi mintaqalari borligini va ularda gelmint turlari hamda miqdori. turlicha bo'lishini e'tirof etgan. Muallifning ma'lumotiga ko'ra *Marchallagia marshalli* barcha mintaqalarda tarkalgan, cho'l yaylovlarida invaziyaning intensivligi yuqori bo'lgan, *Marchallagia mongolica* turi esa faqatgina tog'-oldi mintaqalarda uchraydi.

G.I.Dikov Qozog'istonning Olmaota va Jambul viloyatlarida qo'ylarning oshqozok - ichak tizimida uchraydigan 43 turdagi nematodalarni, shu jumladan 28 turdagi trixostrogilidlarni tarqalishi va kasallik chaqirish qobiliyatiga ko'ra 2 guruxxa ajratgan:

- a) ko'p uchraydigan, invaziyaning intensivligi (II) kuchsiz bo'lgan, kasallikni klinik iamoyon etadigan va ayrim qolda hayvon o'limiga sabab bo'ladigan – *Ostertagia occidentalis*, *O.trifurcata*, *Marchallagia marshalli*
- b) ko'p uchraydigan, invaziyaning intensivligi kuchsiz bo'lgan,

kasallikni klinik namoyon etadigan va hayvon o'limiga sabab bo'ladigan *Trihostrongilus axei*, *O.trifurcata*, *Marchallagia marshalli*, *Nayemonhus contortus* va *Nematodirus filicollis*

G.I.Dikov (1964) Qozog'istonda qo'ylar shirdonida trixostrongilidlarning 2 yangi *Ostertagia andreevi*, 1963 va *Ostertagia orientalis* 1963 turlarini topgan va ularning tuzilishini yozib yoritgan.

Qo'ylarning trixostrongilidlari Qozog'iston, O'rta Osiyo va Kavkazorti xududlariga nisbatan Rossiyaning Uzoq Sharq va Sibir o'lkalarida birmuncha oz tarqalgan. A.S.Melnikov va R.A.Axmetin (1967) Rossiyaning Chelyabinsk viloyatida 23 bosh qo'yni TGYo usuli bilan tekshirganda *Trichostrongylus solumbiformis*, *Ostertagia circumcincta*, *Nayemonhus contortus* topilgan.

N.M.Karabayev (1969) Oltoy o'lkasida 26 bosh qo'yni to'liq gelmintologik yorib ko'rish usuli bilan tekshirganda *Trichostrongylus vitrinus*, *Coperia oncophora* borligini aniqlagan.

Nematodirus, *Ostertagia*, *Coperia* avlodiga mansub parazitlarning qo'ylar orasida keng tarqalganligini A.N.Kadenasiy hammualliflar bilan (1971) bayon etadi. M.Ya Nelyayeva (1973) Krasnoyarsk o'lkasida qo'ylar gelmintofaunasini o'rganib atiga 3 tur (*Ostertagia ostertagi*, *Nematodirus filicollis* *Coperia punctata*) nematodalar borligini aniqladi.

D.K.Karabayev (1978) Qozog'istonda qo'ylar gelmintlarining mintaqaviy tarqalishini o'rganib, tog' va cho'l tumanlarida gemonxuslar, nematodiruslar, marshallagiylar, ostertagiylar va trixostrogilyuslar keng tarqalganligini aniqlagan.

A.A.Axmetov (1973) Kozog'istonning Kokchetov viloyatida qo'ylarning trixostrongilidlari keng arqalganligini aniqdagan. Bundan Marshallagioz turi bilan

qo'ylar 52% zararlanganligini va o'rtacha II 1665 nusxa ekanligi, yuqori darajada invaziyalangan qo'ylarda esa hatto 64500 nusxa gelmint topilganligini bayon etadi.

Bu tadqiqotlardan farqli M.G.Lazerev (1975) Kolmiq avtonom respublikasida qo'ylar orasida trixostrogilidlarining keng tarqalganligini bayon etadi. U 2 turdagi ostertagiylarni, 4 turdagi marshallagiylarni, 5 turdagi nematodiruslarni topgan. Muallifning e'tirof etishicha bu parazitlar bilan IE yil davomida 90-100% darajada saqlangani, II esa gemonxuslar bilan 10965" nusxa, ostertagiylar bilan 5415, nematodiruslar bilan 14752 nusxagacha bo'lishi aniklangan.

V.I.Gayvoronskiy (1980) Rostov viloyatida qo'ylar hazm organlarida 17 turdagi strongilyatlar mavjudligini aniqlagan. Muallif strongilyatlarning 41,9% trixostrogilyuslar, 39,4% nematodiruslar, 17,5% ostertagiylar, 0,42% gemonxuslar, 0,13% kooperiyalar, 0,03% marshallagiylar ekanligini bayon etadi.

Biroq qo'ylarning gelmintozlari Janubiy mintakalarda ayniqsa keng tarqalganligi tadqiqotchilarning tekshirishlari bilan tasdiqlangan. Bu hol ayniqsa O'rta Osiyo va Qozog'iston olimlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlarida ham o'z isbotini topgan.

O'zbekiston sharoitida qo'ylar gelmintofaunasini o'rgangan I.X.Irgashev, Sh.A.Azimov, D.A.Azimov, B.Salimov asosiy ma'lumotlarini jamlab, shuningdek A.Ruzimuradovning nematodiruslarning bizning sharoitimizda uchraydigan turlarini, A.Oripovning marshallagiya avlod turlari borasida ilmiy izlanishlari taxlil qilinib, O'zbekistonda 70 yillargacha qo'ylarda 71 turga mansub gelmintlar topilgan bo'lib, ulardan trixostrogilidlar, (marshallagiylar, nematodiruslar va gemonxuslar), diktiokaulalar, moniyeziya va fassiolalar keng tarkalganligi aniqlangan va bu gelmintlar chaqiradigan kasalliklar qo'ylarning asosiy gelmintozlari bo'lib hisoblanadi.

G.I.Dikov Olma-ota viloyatida tekshiruvlar o'tkazib O'rta Osiyo va Qozog'istonda uchraydigan trixostrogilidlar faunasi yana yangi 3 tur *Trichostrongylus solumbiformis*, *Ostertagia circumcincta*, *Nayemohus contortus* bilai boyiganini bayon etadi.

Shunday qilib yuqorida bayon etilgan adabiy tahlillar shuni ko'r- satadiki qo'ylar gelmintlarining faunasi va tarqalishi olimlar tomonidan x,ar tomoshgama va batafsil o'rganilgan. Ammo bu ilmiy ishlarda qo'y gelmintofaunasp, ayrim gelmintlarning tarqalish darajasi tashki muhit o'zgarishiga qarab, qo'ychilik texnologiyasiga va boshqa ekologik, iqti-sodiy-xo'jalik omillariga karab o'zgarishlari to'liq o'rganilmagan. Shuni ham bayon etish lozimki qo'ylar faunasi to'g'risida ko'pchilik ma'lumotlar bugungi kunda to'g'ri kelmayapti, chunki oxirgi yillardagi tashqs muxdgning o'zgarishlari (meliorasiya, irrigasiya, yangi yerlarning o'zlashtirilishi yaylovning qisqara borishi, chorvachilikda mulkchilik shaklining o'zgarishn, qolaversa chorvachilik texnologiyasidagi o'zgarishlar) bunga ta'sir etmay qolmagan.

Shuningdek gelmintozlarning mavsumiy dinamikasi bo'yicha ham yetarli tekshirishlar olib borilmagan. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

N.V.Badanin Samarqand viloyatida qorako'l qo'ylarining trixostrogilidlar bilan o'rtacha yillik zararlanish darajasi 93,8%ni va har bir kasallangan xayvonda topilgan parazit nusxasi o'rtacha 1076 ga tengligini yozadi. Muallif kuz va qish mavsumlarida qo'ylar yoppasiga zararlanganligini, qish mavsumida har bir kasallangan qo'yda topilgan parazitlar soni o'rtacha 890, kuz mavsumida esa 1434tani tashkil etganligi, bahorda invaziyani istensivligi (85,7%) ham intensivligi (794 ta nusxa parazit) pasayganligi , yoz faslida esa IE ni biroz ko'tarilganligi (88,8%) ammo II keskin pasiyanligini (76 nusxa) e'tirof etgan. N.V.Badaninning tekshirishlariga binoan degelmintizasiya yiliga 2 marotaba: birinchisi bahorda, ikkinchisi kuzda o'tkazilishi lozim.

G.I.Dikov gemonxozdan qo'ylarning o'limi aprel oyining oxiri va may oyining boshiga to'g'ri kelishini, kuzda eng yuqori darajaga ko'tarilgan davrda yani sentyabr oylaridan bu ko'rsatkichni pasayganligini yozadi.

Ye.N.Yermolova Chimkent viloyatida qo'ylarning gemonxoz bilan zararlanganligining mavsumiy o'zgarishi bir ko'tarilishga ega bo'lib, eng yuqori darajasi mart-aprel oylariga to'g'ri kelishini aniqlagan. Muallifning e'tiroficha qo'ylarning marshallagiya va nematodiruslar bilan zararlanishi qish va baxor faslida kuzatilib uning eng yuqori darajasi aprel-may oylariga to'g'ri keladi.

I.X.Irgashevning ma'lumoticha O'zbekiston sharoitida trixostrogilidozlarning dinamikasi (odatda ular aralash xolda uchraydi) quyidagi mintaqaviy xususiyatlarga ega: sug'oriladigan mintaqalarda qo'zilarning zararlanishi eng yuqori ko'rsatkichga etishi qishki-bahorgi mavsumga to'g'ri keladi, katta yoshdagi qo'ylarda esa bu ko'rsatkich kuz va qish mavsumlariga to'g'ri keladi Cho'l va cho'l-yaylov mintaqasi sharoitida esa qo'zilar trixostrogilidozlar bilan asosan kuzda, qisman qish va bahor fasllarida zararlanadi, katta yoshdagi qo'ylar qish va bahor mavsumlarida kasallanadi. Tog' va tog' oldi mintaqalari sharoitida katta yoshdagi qo'ylarning trixostrogilidozlar bilan zararlanishi asosan kish mavsumida, qo'zilarida esa bu ko'rsatkich qish va bahor faslida vujudga kelishi bayon etilgan.

M.Aminjonovning aniqlashicha Qashqadaryo viloyatida qo'ylarning trixostrogilyozlar bilan kuchli zararlanishi kuz, qish, bahor fasllariga to'g'ri keladi

V.I.Kuznesov janubiy-sharqiy Krzog'istonning chorvachilik xo'jaliklaridan birida qo'ylar trixostrogilidozlarini mavsumiy dinamikasini o'rganish asosida, mazkur gelmintozlarga qarshi samarali kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqdi.

I.F.Pustoy (1970) Tojikiston sharoitida qo'y gelmintozlarini qo'zg'atuvchilarining bioekologiyasiga oid masalalarni batafsil ZFganish asosida, qo'ylarning gelmintlar bilan zararlanishi qar bir mintaq uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini aniqlagan.

I.F.Pustovoy, V.O.Ivanov, Z.P.Fedorovalar (1973) Tojikistonda qo'ylar organizmida 20 turdagi trixostrogilidlar mavjudligini aniqladiganlar. Bu mualliflar ma'lumoticha Tojikistonda qo'ylar orasida uchraydigan trixostrogilidlar uri O'zbekiston xududiga qaraganda bir muncha oz bo'lsa ham O'zbekistonda uchramagan bir necha tur parazitlar topilgan. Bu (*Ostertagia occidentalis*, *O.trifurcata*, *Coperia punctata*, *Marchallagia dentirpicularis*).

Turli mintaqalar va mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tekshirishlar (A.G.Murtazin, 1975; G.A.Kotelnikov, 1979; V.I.Gayvoronskiy, 1981) shuni ko'rsatdiki, qo'ylar gelmintozlarining mavsumiy o'zgarishi,

ularning faunasi va tarqalishi, shu xududning iklim-jug'rofiy, ekologo-biologik xususiyatlariga uzviy bog'liqdir.

Bu qonuniyat O'zbekistonda olib borilgan gelmintologik tadqiqotlar (N.V.Badanin, I.X.Irgashev, D.A.Azimov, Ya.D.Nikolskiy, B.Salimov, A.R.Ro'zimurodov, A.O.Oripov) bilan ham tasdiqlangan.

Yuqorida keltirilgan qo'y gelmintlari va ular tomonidan chaqiri-ladigan kasalliklarning tarqalishiga bag'ishlangan adabiy ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki XX asrning 30 yillarida gelmintologik tekshirishlar (V.S.Yershov, N.P.Orlov, A.V.Yefimov, M.A.Palimpsestov,) qo'y gelmintlarining faunasi 10-15 turidan iboratligini e'tirof etdilar.

Keyinchalik olib borilgan gelmintofaunistik tadqiqotlar natijasida gelmintlar (faunasi yangi turlar bilan boyitildi. X.Satubal-din, G.I.Dikov; N.A.Gubaydullin, Ye.N.Yermolova; I.X.-Irgashev, D.A.Azimov; A.O.Oripov 1983 va boshqalar

olib borgan gelmintofaunistik tadqiqotlar ma'lumotlari taxlil qilinganda doimo gelmintlar turlari ortib borishi kuzatiladi. Biroq, gelmintlar faunasi 50-60 yil oldin juda oz bo'lib, oxirgi paytlarda ular keskin ko'paygan deya e'tirof eta olmaymiz. Chunki bu parazitlar albatta oldin ham qo'ylar organizmida parazitlik qilgan, boshlang'ich davrda gelmintologik tekshirish usullarining rivojlanmaganligi, adabiy ma'lumotlarning yetarli bo'lgani, gelmintlarning morfologiyasi va sistematikasini yaxshi biladigan gelmintolog mutaxassislarning kamchiligi tufayli xayvonlarda parazitlik qilayotgan gelmintlarni to'liq aniqlanishiga imkon bo'lmagan.

Keyinchalik akademik K.I.Skryabin tomonidan ishlab chiqilgan to'liq gelmintologik yorib ko'rish usuli, gelmintolog mutaxassislarning bilim darajasini ortishi va ularning sonini ortishi, gelmintofaunistik tekshirishlarni rejali olib borilishi va boshqa omillar turli

mintaqalarida turli hayvonlar, shu jumladan qo'ylar gelmintofaunasini to'liq aniqlash imkonini berdi.

Biroq bundan gelmintlar turlari endi o'zgarmas ekan degan xulosa ham qilish mumkin emas. Chunki gelmintofaunani shakllanishi tabiatning o'zgarishi tufayli doimo o'zgarib turadi va u dialektikaning umumiy qoidalariga bo'ysinib. doimo harakatda va o'zgarishda bo'ladi. Tashqi muhitning o'zgarishi gelmint xo'jayini organizmiga, shuningdek, bevosita gelmint organizmiga biotik va abiotik ta'sir etadi.

Demak, biologiya fanining asosiy maqsadi, shuningdek parazitologiya va gelmintologiyaning vazifasi tabiatda bo'layotgan o'zgarishlarni dialektika qonunlari ; asosida o'rganish lozimligini taqozo etadi.

Oxirgi yillarda gelmintofaunani ekologik tizim bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish gelmintosenoz qonuniyatlarini aniqlash, ma'lum mintaqa va

tumanlarning ekologo-jug'rofiy sharoitlari shuningdek chorvachilikni yuritish texnologiyasi va insonning aralashishi natijasida tashqi muhitning o'zgarishlari gelmintofaunaning shakllanishi, gelmintozlarning kelib chiqishi va kechishiga ta'siri har tomonlama va chuqur o'rganildi (I.X. Irgashev, D.Azimov, B.Salimov,; A.Ro'zimurodov A.O.Oripov, A.G.Korostnsheva, V.S.Shexovsev, N.M.Bidenko, L.V.Peresadko, M.V.Yakubovskiy, N.F.Karasev,2001; B.Nazarov hmualliflari bilan, 2003; A.O. Oripov, 2003; B.Salimov, 2003 va boshqalar).

V.S.Shexovsov (1990) Ukrainada, Yu.P.Sigacheva (1992) Rossiya federasiyasining markaziy qoratuproq mintaqalarida qo'y gelmin-tozlarining epizootologik masalalarini o'rganib strongilyatozlar, jumladan trixostroglyidlar va diktiokaulezning keng tarqalganligi va bu ko'rsatgich hayvonlarning yoshi, jinsi hamda o'rganilgan xududning iqlim-jug'rofiy xususiyatlariga bog'likligini aniqlaganlar.

F.B.Salimov (1990) O'zbekistonda qorako'l qo'ylarining nematofaunasi 22 turga. 14 avlodga, 6 oilaga va 2 turkumga mansubligini aniklagan.

O'zbekistonda qorako'l qo'ylarining nematodiruslar bilan zararlanish darajasi 93,0%ni tashkil etib, o'rtacha invaziyaning intensivligi har bir kasallangan xayvonga 249 nusxani tashkil etgan. O'zbekistonda keng tarqalgan nematodalardan marshallagiya (EI=63,4%, II-266,7 nusxa) va nematodiruslar (EI=53 : %, II-76,9 nusxaga) shuningdek diktiokaulalar xam ko'p uchraydi (EI=25. %, II-15,1 nusxa).

M.A.Atayev (1990) Shimoliy Kavkazning past tekisliklarida qaramol va qo'ylarda G'.gigantica bilan zararlanish yuqori bo'lgan (EI=54,7 - 63,8%; II=2-145 nusxa va 4-115 nusxa), tog' va tog' oldi zonalarida bu ko'rsatgichlar past bo'lganligi (EI=0/ ; o dan 0,6%gacha va II-1-3 nusxa), G'. hyeratisa turi barcha mintaqalarda tarqalgan bo'lib, ammo zararlanish darajasi ancha past (EI=6,0-11,9%, II=3-12 5 nusxa) ekanligini bayon etadi.

K.Masalimov (1991) Sharqiy Qozog'iston sharoitida qo'ylarda 16 turdagi gelmintlar uchrashi va ular orasida xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar moniyezioz, diktiokaulez, dikroselyoz, senuroz va exinokokkoz kasalliklaridan kelishini ko'rsatadi. Qo'ylarning oshqozon-ichak stron-gilyatlari bilan zararlanishi asosan bohor - yoz fasllarida moniyeziozlar bilan - mayning oxiri va iyunning boshlarida, diktiokaullalar bilan esa sentyabr - oktyabr oylarida yuqori darajada bo'lishini aniqlaydi.

N.E.Yuldashev (1994) va U.E.Temurov (1997) O'zbekistonda qo'y gelmintozlarining ko'zg'atuvchilari biologiyasi va kasalliklarning tarqalish darajasiga tuprok tarkibining ta'sirini o'rganilib tuproqning umumiy tuzlanganligi, undragi gumus miqdori va tuproq muxitining reaksiyasi (rn) gelmintlarning tarqalishiga, biogelmintlarning (jumladan moniyeziozlarning) oraliq xo'jayinlari (oribatid kanalar) biologiyasiga ma'lum ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar.

A.O. Noravlyan (1999) . M.M. Bacharova (1999), A.A. Cherelanova (1999) olib borgan ilmiy tekshirishlarida gelmintozlarga qarshi kurash chora-tadbirlari majmuasida (bahorgi, ya'ni yaylovga haydashdan oldingi o'tkazilgan sog'lomlashtirish tadbirlarini samaradorligini aniqlash maqsadida hayvonlarning koprologik tekshirishlar va molyuskalarning (aprel-may) protostrongilid lichinkalari bilan zararlanganligini aniqlash katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etganlar.

B.M.Ashurmatov (1999) olib borgan ilmiy tadqiqotlarida Jizzax viloyati tog' va tog'oldi mintaqalarining biosenozida qo'ylarning asosiy gelmintlari bo'lib, fassiola gepatika, exinokokk (1agvaye), teniya gidatigena (1agvaye), moneziyalar (M. benedeni), marshallagiylar, diktiokaullalar, gemonxlar va nematodiruslar xisoblansa, cho'l yaylov biosenozida exinokokk, moniyeziyalar (M. yexransa), marshallagiylar, gemonxlar, diktiokaullalar tog' va tog'oldi agrobiosenozida fassiola gepatika, exinokokk, moniyeziyalar (M. benedeni), nematodiruslar,

gemonxlar, diktiokaulalar, sug'oriladigan tekis agrobiosenozida esa ikki turdagi fassiolalar, exinokokk, moniyeziyalar (M. benedeni) diktiokaulyoz va marshallagiyalar hisoblanalanadi.

Oxirgi 10 yilda O'zbekistonda ham boshqa MXDdagi kabi yuz bergan o'zgarishlar, chorvachilikda mulkchilik shaklining o'zgarishi, turli xil chorvachilik xo'jaliklarining tashkil topishi tabiiyki chorva mollarining gelmint va gelmintozlariga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazdi.

A.O.Oripov., I.Namanchayev (2000) O'zbekistonda qo'y va qoramol gelmintozlarining tarqalishi borasida olib borgan ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki gelmintozlar tarqalishida mintaqaviy xususiyatlar mavjudligi, gelmintlar bilan zararlanish xayvonlarning turi, yoshi, jinsi va zotiga bog'liqligi, hamda gelmintozlarning mavsumiy o'zgarishlari haqida chuqur va keng ko'llamda ma'lumotlar to'plangan. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha chorvachilikda mulkchilik shaklining o'zgarishi natijasida turli hil xo'jaliklar paydo bo'ldi, ya'ni davlat xo'jaliklari qatorida jamoa xo'jaliklari (shirkat, ijara, jamoa xo'jaliklari). dehqon - fermer xo'jaliklar va xususiy (shaxsiy) xo'jaliklar tashkil bo'lib ularda mollarining tuyuq soni, ularni saqlash va oziqlantirish texnologiyasi bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. Bu omillar esa chorva mollarining xar xil kasalliklar bilan, jumladan gelmintozlar bilan zararlanishga ta'sir etishi kutiladi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha qo'ychilikdagi turli tur xo'jaliklarda gelmintozlarning tarqalishini aniqlash natijalari davlat va xususiy xo'jaliklarda qo'ylarning turli gelmintozlar bilan zararlanganligi (8,8-63,6%) jamoa, ayniqsa dehqon - fermer xo'jaliklaridagiga (0,2-53,8%) nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan.

V.A. Sidorkinning (2001), V.P.Koshevarov (2002) olib borgan gelmintokoprologik tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ko'zilarning diktiokaulez bilan zararlanganligi (EI) 17,8% dan 19,1% gacha, strongilidlar bilan

esa- 40,1% dan 43,7% gacha, nematodalar bilan -45,3%dan 48,5%gacha va gemonxuslar bilan -31,6% dan 35,9% gacha va zararlanganligini aniqlangan.

V.V. Abramyan, N.E. Xachatryan (2003) olib borilgan tekshirishlari natijasida o'pka strongilyatozlari bilan o'rta intensivlikda (xar bir zararlangan 680 nusxagacha parazit: bo'lsa) zararlangan qo'y go'shtini organoleptik va bioximik ko'rsatgichlari sog' hayvonlar go'shtining sifat ko'rsatgichlariga nisbatan ancha past bo'lganligi aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda respublikamiz qoramolchilik va qo'ychilik xo'jaliklarida fassiolyoz, maniyezioz, oshqozon-ichak strongilyatozlari (marshallagioz, nematodiroz gemonxoz, ostertagioz, trixostrogilyoz), ditio-kaulyoz kabi gelmintozlar keng tarqalgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib biz xozirgi sharoitda qo'ylarning asosiy gelmintozlari, ularning tarqalish darajasi va mavsumiy o'zgarish qonuniyatlarini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Ma'lumki har qanday kasallikka qarshi davolash va profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish ularning tarqalish darajasi, qo'zg'atuvchilarining biologiyasi hamda epizootologik xususiyatlarini aniqlashni taqozo etadi. Chunki ishlab chiqadigan chora-tadbirlar ilmiy asoslangan bo'lishi, kasallik to'g'risidagi yuqorida qayd etilgan biologik, ekologik va epizootologik ma'lumotlar majmuasidan kelib chikishi lozim.

Yuqorida keltirilgan fikr muloxazalarga asoslanib, gelmintozlarga qarshi yangi ximioprofilaktik vosita ishlab chiqishdan oldin biz oldimizga qo'y gelmintozlarining ayrim biologo-epizootologik xususiyatlarini aniqlash vazifasini qo'ydik va bu vazifani amalga oshirish maqsadida quyidagi tadqiqotlarni olib bordik:

-Payariq tumanida qo'ylarning trixostrogilyoz bilan zararlanganligini o'rganish va ularning tarqalish darajasini aniqlash;

- qo'ylarning trixostrogilyoz kasalligini xo'jaliklar turiga qarab tarqalishini aniqlash;

- qo'ylarning trixostrogilyoz kasalligini davolash va oldini olishda ayrim antelmintiklarni sinovdan o'tkazish

2.1. Kasallik qo'zg'atuvchilarining tuzilishi

Trixostrogilyoz – surunkali oqimda kechuvchi invazion kasallik bo'lib, *Trichostrongilus* avlodiga mansub gelmintlarning ingichka bo'lim ichaklarida va ba'zan shirdonda parazitlik qilishi oqibatida qo'zg'atiladi.

Mollarda o'tkazilgan qator to'la yorib o'rganishlardan xulosa qilganda, O'zbekiston sharoitida *trixostrogilus*larning – *T.axes*, *T.colimboformis*, *T.probulurus*, *T.skriabini*, *T.orientalis*, *T.capricola*, *T.vitrinus* singari turlari uchraydi.

*Trichostrongilus*lar *trichostrongilidlar* oilasining eng mitti vakillari hisoblanadi. Respublikamiz chorva mollari orasida ko'proq *Trichostrongilus vitrinus* turi uchraydi.

Mazkur gelmintlarni I.V. Orlov quyidagicha tavsiflagan: *T.vitrinus* lar ipsimon, qizg'ish tusdagi nematodalardir. Qizilo'ngachi 0,490-0,620 mm uzunlikka ega. Chiqaruv teshigi bosh qismidan 0,105-0,175 mm masofada joylashgan.

Erkagining tana uzunligi 4,0-6,25 mm ga, yeni esa 0,080-0,112 mm ga teng. Bursasi yoriq bo'lib, yaxshi taraqqiy yetgan parraksimon o'simtalariga ega. Qovurg'alari ingichka, bir xil qalinlikda bo'lib, bursasining oxirigacha davom yetadi. Yuqori qovurg'a 0,070 mm uzunlikka ega va ikkita shaxobchaga bo'linadi. Spikulalari 0,160-0,178 mm uzunlikda bo'lib, bir tekis, to'g'ri va pastki qismi ingichkalashgan bo'ladi.

Urg'ochisining uzunligi 5,2-7 mm ga, yeni jinsiy teshigi (vulvasi) qismida 0,095 mm ga teng. Jinsiy teshigi dum oxiridan 1,15-1,30 mm masofada ochiladi. Qini qisqa va yaxshi rivojlangan tuxumdoni mavjud.

Chiqaruv teshigi dum oxiridan 0,088-0,090 mm masofada joylashgan. Dum oxiri chiqaruv teshigidan boshlab ingichkalashib boradi va tekinox'ning yuqori qismiga qarab yegilgan bo'ladi. Tuxumlar 0,082-0,090 mm uzunlikka va 0,046-0,050 mm enlikka ega.

Rivojlanishi. Trixostrogiluslar ham barcha strongilidlarga o'xshab rivojlanadi. Trixostrogilus lichinkalarining rivojlanishi uchun eng maqbul harorat 23-25⁰ S bo'lib, 24-42 soat ichida tuxumdan lichinkalar chiqib boshlaydi. Ushbu sharoitda 3-kun oxirida lichinkalar birlamchi tullaydi. 4-kun yakunida esa ikkilamchi tullab, invazion bosqichiga o'tadi. Lichinkalar faqat tezakda rivojlanadi. Hayvon zararlangandan keyin 19-21 kun vaqt o'tishi bilan urg'ochi strongiluslar tuxum qo'ya boshlaydi.

Yepizootologiyasi. Trixostrogilus avlodiga mansub gelmintlar haqidagi ma'lumotlar ilk bor K.I. Skryabin (1916) risolalarida qayd etilgan bo'lib, u qoramol, qo'y va yechkilarda mazkur avlodning T.retrotaeformis turini bir necha marta uchratgan.

Trixostrogiluslar tarqalishining mavsumiyligi turli zonalarda uchrashi va hayvonlarning yoshiga bog'liqligi kabi ko'rsatkichlari Respublikamizda kam o'rganilgan.

Sug'oriladigan zonalarda hayvonlar trixostrogilyoz bilan nisbatan 35,4 % zararlangan. Qishda – 38, bahorda – 44, yozda – 18 va kuzda 40 % qo'ylar zararlanadi. Yosh mollar trixostrogiluslar bilan yilning barcha fasllarida zararlanishi mumkin.

Yosh mollar cho'l-yaylov zonasida qish faslida eng ko'p zararlanisa, yozda aksincha, eng kam zararlanadi. Trixostrogiluslar katta yoshdagi mollarda ham yilning barcha fasllarida uchrab, ular ko'proq gelmint tashuvchi xususiyatiga ega bo'ladi.

Tog' va tog' oldi zonalarida trixostrogilyoz yilning barcha fasllarida va barcha yoshdagi qo'ylar orasida uchraydi. O'rtacha zararlanish darajasi 48,4 % dir. Qo'ylarning zararlanishi qishda 61,5 % ga yesada, invaziyaning intensivlik darajasi kam–24 tadan bo'ladi. Yozda invaziyaning intensivligi 350,2 tagacha yetadi.

Klinik belgilari. Kasal hayvonning ishtahasi keskin buzilib, uning tirik vazni kamayib ketadi. Sezilarli darajada oshqozonning yallig'lanishi (gastrit) va o'tkir ich o'tishi kuzatiladi.

Patalogoanatomik o'zgarishlar. Tana o'ta oriq, ko'rinarli shilliq pardalar oqish tusda, asosiy o'zgarishlar ingichka bo'lim ichaklarida qayd yetiladi. Shilliq qavati yallig'langan, qon quyilganligi va ko'p sonli trixostrogiluslar mavjudligi aniqlanadi. Mazkur gelmintlarning mittiligi tufayli ichakdagi aralashmalar orasida oddiy ko'z bilan ko'rishning iloji bo'lmaydi. Shuning uchun jasadni to'la yorib o'rganish va lupalardan foydalanish lozim.

Diagnoz qo'yish va uni farqlash. Hayvon tirikligida belgi-lanadigan diagnoz tekshirilgan tezak namunasida trixostrogilus tuxumi-ning topilishiga asoslanadi. O'limidan so'nggi diagnoz esa ingichka bo'lim ichaklaridagi xarakterli o'zgarishlar va mavjud trixostrogiluslarning ko'p sonliligiga tayaniladi.

3. Shaxsiy tadqiqotlar

3.1. Materiallarni tekshirish uslublari

Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Do'stlik shirkat xo'jaligi hamda Samarqand qishloq xo'jaligi instituti Veterinariya,

zootexniya va qorako'lchilik fakulteti "Hayvonlar kasallikari va parazitologiya" kafedrası qoshidagi ilmiy laboratoriyada olib borildi.

Bizlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Payariq tumani Do'stlik shirkat xo'jaligida va aholining shaxsiy qo'y-larida olib borildi.

Shunday qilib trixostrogilyoz kasalligi qo'zg'atuvchisining epizootologiyasi, klinikasi, biologiyasi va turi o'rganilib kasallikning invaziya intensivligi ham inobatga olindi. Jami bo'lib 80 bosh qo'y gelmintsizlantirildi.

3.2. Tadqiqot natijalari

Do'stlik shirkat xo'jaligida qo'ylarning trixostrogilyoz kasalligining qo'zg'atuvchilari bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida shirkat xo'jaligidagi va aholi shaxsiy qo'ylaridan 80 boshi ajratilib, 10 % albazen suspenziyasi bilan gelmintsizlantirildi. Qo'ylardan chiqqan axlat (tezak) yig'ib olinib, Flyuborn va Darling usullarida tekshirildi. Tadqiqot natijalari birinchi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Xo'jalikdagi qo'ylarning trixostrogilyoz kasalligi bilan zararlanish darajasi

guruh-lar	Hayvon bosh soni	Flyuborn usulida tekshirilganda	
		trixostrogilyoz	%
1-chi guruh	40	16	40
2-chi guruh	40	14	35

Birinchi jadvaldan ko'rinib turibdiki, qo'ychilik shirkat xo'jaligida 40 bosh qo'y gelmintsizlantirilganda 16 boshida trixostrogilyoz kasalligi qo'zg'atuvchilari topilib kasallik bilan zararlanish darajasi 40 % ni tashkil qildi. Aholi qo'ylarning

40 boshi tekshirilganda 14 boshida trixostrogilyoz kasalligini qo'zg'atuvchilari va tuxumlari topilib trixostrogilyozning zararlanish darajasi 35 % ni tashkil etdi.

Antgelmintik dorilarning trixostrogilyoz kasallik qo'zg'atuvchilari ga ta'siri ikkinchi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qo'ylarning trixostrogilyoz kasalligida antgelmintiklarni samaradorligi

guruh-lar	Hayvon bosh soni	Antgelmin tik nomi	Qo'llani lishi	antgelmintik ning gelmintlarga ta'siri foizda	antgelminti kning samaradorli gi foizda
1-chi guruh	15	Albendazol poroshogi	yemga qo'shib	85 %	85 %
2-chi guruh	15	10 % albazen suspenziyasi	og'iz orqali	100 %	100 %

Ikkinchi jadvaldan ko'rinib turibdiki albendazol poroshogini yemga qo'shib berilganda antgelmintikning gelmintlarga ta'siri 85%ni antgelmintikning samaradorligi esa 85%ni tashkil etdi. Albazen 10%li sus-penziyasi og'iz orqali ichirilganda antgelmintikning gelmintlarga ta'siri samaradorligi esa 100%ni tashkil etdi

3.3. Olingan natijalarning tahlili

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyati Payariq tumani Do'stlik shirkat xo'jaligida va aholining shaxsiy qo'ylari orasida trixostrogilyoz kasalligining tarqalishi darajasi ancha yuqori. Buning sababi keyingi yillarda qo'ylarda gelmintsizlantirish ishlari reja asosida olib borilmaganligidir.

Bizlarning ilmiy tekshiruv natijalarimiz shuni ko'rsatdiki, shirkat xo'jaliklarida va aholining shaxsiy qo'ylarida trixostrogilyoz kasalliklari uchrab turishi va ularga qarshi o'z vaqtida antigelmintik dorilarini berish yaxshi natijalarga olib kelishi ta'kidlab o'tildi.

Shu tekshiruvlardan bizlar xo'jalikda 30 bosh qo'yni 2 ta guruhga, bo'lib, ularga antigelmintik dorilaridan albendazol poroshogidan berildi. 2 ta guruhga 10 % albazen suspenziyasi og'iz orqali ichirildi..

Tekshiruv natijalari 48 soatda aniqlanganda, guruhlardagi qo'ylarning axlati (tezagi) alohida ajratilib, Flyuborn va Darling usullarida tekshirilganda trixostrogilyoz tuxumlari tushganligi mikroskopda tekshirilib, isbotlandi. Tekshirilgan 2 guruhning ya'ni 10 % li albazen berilgan guruhlar qo'ylarining tezagi tekshirilganda parazit tuxumlarining yo'qligi, 1 guruhda, ya'ni albendazol poroshogi berilgan qo'ylarda esa trixostrogilyozlar, tuxumlari topildi.

Yuqoridagi tajribalar shuni ko'rsatdiki, 10 % li albazen suspenziyasi qo'ylarga og'iz orqali ichirilganda dori qo'ylar organizmiga to'liq tushishi, albendazol poroshogi esa qo'ylar yemiga aralashtirilib berilganda aytilgan doza qo'ylar organizmiga tushmaganligi isbotlandi.

Shuni bizlar tajribalarimizda guvohi bo'ldik 10 % li albazen suspenziyasini berishdan maqsad, albendazol dorisining to'kilib, isrof bo'lishining oldini olish, hayvonning organizmga belgilangan miqdordagi antigelmintiklar tushishi, ya'ni qo'ylar shirdoni va yo'g'on bo'lim ichaklariga dori to'liq dozada yetib borib, o'z ta'sir kuchini namoyon qilishi aniqlandi.

3.4. Albazen suspenziyasining iqtisodiy samaradorligini aniqlash

Albazen suspenziyasini iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi formuladan foydalandik:

$$I_s = S_1 - S_2$$

I_s – iqtisodiy samaradorlik;

S_1 – qo'ylarni gelmintsizlantirishda Albendazol poroshogi bilan
ishlov berishdagi xarajat;

S_2 – qo'ylar albazen suspenziyasi bilan gelmintsizlantirishdagi

xarajat.

- a) Gelmitsizlantirish hajmi 60 bosh;
- b) Gelmitsizlantirish soni 1 yilda 2 marta;
- v) Bir marta gelmitsizlantirish vaqti – 1 ish kuni;
- g) Gelmitsizlantirishda ishtirok etgan vet.vrach–1, vet texnik – 1 kishi;
- d) Bir marta gelmitsizlantirish uchun ketgan dori miqdori.

1. Qo'ylarni albendazol poroshogi bilan gelmitsizlantirishdagi xarajat (S₁):

Qo'ylarning tirik vazni 40 kg dan har bir qo'yga 3gramdan.

1 kg dorining bahosi 40000 so'm. Vet.vrachning o'rtacha oylik maoshi 360000 so'mni, vet.texnikning esa o'rtacha oylik maoshi 280000 so'm tashkil qiladi.

Vet. vrach (360000:26) x 1 kun = 13846so'm

Vet.texnik (280000:26) x 1kun = 10769 so'm.

Jami: 24615 so'm

Veterinariya tadbirlariga ketgan xarajatlar:

Albendazol poroshogi 3gramdan x 60 bosh = 180 gr

Tannarxi 180 x 400 = 7200 so'm

Barcha xarajatlar 24615 + 7200 = 31815

2. Qo'ylarni Albazen suspenziyasi bilan gelmitsizlantirish uchun ketgan xarajatlar (S₂):

Qo'ylarning tirik vazni 40 kg dan har bir qo'yga 5 ml dan.

1 litr dorining bahosi 18000 so'm. 1 litr dorining bahosi 18000 so'm.
Vet.vrachning o'rtacha oylik maoshi 360000 so'mni, vet.texnikning esa o'rtacha oylik maoshi 280000 so'm tashkil qiladi.

Vet. vrach $(360000:26) \times 1 \text{ kun} = 13846 \text{ so'm}$

Vet.texnik $(280000:26) \times 1 \text{ kun} = 10769 \text{ so'm}$.

Jami: 24615 so'm

Veterinariya tadbirlariga ketgan xarajatlar:

Albazen suzpenziyasi 5gramdan x 60 bosh = 300 gr

Tannarxi $300 \times 180 = 5400 \text{ so'm}$

Barcha xarajatlar $24615 + 5400 = 30015$

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash

$Is = S_1 - S_2 = 31815 - 30015 = 1800 \text{ so'm}$ samara olindi.

4. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi

Hozirgi sharoitda veterinariya xizmatining faoliyati chorvachilikning samaradorligini har tomonlama oshirilishiga yo'naltirilishi kerak. Ishlab chiqarishning ana shu tarmog'ini yanada intensivlashda veterinariya tadbirlari samaradorligining mollar kasallanishi va nobud bo'lishini kamaytirish, ular mahsuldorligini oshirish, kasallanish muddatlarini qisqartirish, chorva mahsuloti va xom ashyosining sifatini oshirish, ularning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, xo'jaliklarda va boshqa chorvachilik korxonalarida sog'lom podalar yaratish imkonini beradigan iqtisodiy tahlili muhim ahamiyat kasb yetadi.

Veterinariya ishining iqtisodiyoti - veterinariya tadbirlarining chorvachilik rivojlanishiga ta'sirini, mahsulot birligiga eng kam mehnat vamablag' sarflagan

holda eng ko'p miqdorda mahsulot olinishini ta'minlovchi qonuniyatlarni o'rganadigan fandır.

Ushbu fanning asosiy vazifalari quyidagilar: xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida (chorvachilik, go'sht, sut, xom ashyo sanosti, transport) o'tkazadigan veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini belgilash veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish rezervlarini aniqlash, mollarning yuqumli, invazion, yuqumsiz kasallik-lari keltiradigan iqtisodiy zararni o'rganish, veterinariya fani va amaliyotining yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish natijasida olinadigan iqtisodiy samarani belgilash, mollar kasalliklarini oldini olish, davolash usullarining iqtisodiy jihatdan foydali usullarini ishlab chiqishga, veterinariya ishini tashkil etishni rejalashtirish va uning uslublarini takomillashtirishni va amalga oshirishga yordam berish.

Veterinariya tadbirlarining samaradorligini tahlil etishda qo'llaniladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi. Veterinariya faaoliyati obektlarining xilma-xilligi, veterinariya tadbirlari vazifasining ko'p qirraligi, veterinariya mutaxassislari mehnat sarfining samaradorligini aniqlash, mollarning turli kasalliklarga qarshi kurashish u yoki bu vositalari qoida umullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini belgilash imkonini beruvchi maxsus iqtisodiy ko'rsatkichlar sistemasini barpo etish zarurligini belgilaydi.

Mollar kasallanishi, nobud bo'lishining, chorvachilik mahsulotlari talofatining oldini olishga yo'naltirilgan oldini olish, sog'lomlashtirish va davolash tadbirlari samaradorligining iqtisodiy ta'rifi uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimi mavjud: amaldagi va oldi olingan iqtisodiy zarar; veterinariya tadbirlarini o'tkazish natijasida olinadigan iqtisodiy samara; 1 so'mlik sarf-xarajatning samaradorligi; kapital mablag'larning o'zining qoplashi; yalpi indeks; veterinariya mutaxassislarning mehnatining unumdorligi.

Iqtisodiy zarar – deganda chorvachilikda mollarning kasalliklari shartlagan va pul shaklida ifodalangan talofatlar tushuniladi. Mollar kasalliklari iqtisodiy zararining turli xillarini shartlaydi, o'limdan, majburiy so'yishdan, mollarni majburan yo'q qilishdan ko'rilgan zarar; mollar mahsuldorligi va qiymati pasayishidan, mahsulot sifatini pasayishi, buzilgan mahsulot va xom-ashyoni brak qilish va hokazolardan ko'rilgan zarar. Mollar kasallinishidan keltirilgan iqtisodiy zarar chorvachilik mahsulotlariga doir amaldagi davlat xarid narxlari bo'yicha hisob-kitob qilinadi, uni ancha uzoq davr (5-10 yil) uchun baholashda qiyoslama narxlardan foydalaniladi.

Oldi olingan zarar – veterinariya tadbirlari amalga oshirilishining iqtisodiy natijasi bo'lib, u tadbirlarni tezkor, kompleks o'tkazish, veterinariyada foydalaniladigan yangi, yanada zamonaviy usullar va ularni qo'llanilishi hisobiga mahsulotning mumkin bo'lgan talofatlarini oldini olish miqdorini xarakterlaydi. O'limdan saqlab qolingan mol qiymati va mollar kasallanishining oldini olish, ularning sog'ayish muddatlari qisqarishi natijasida, shuningdek mahsulot sifatining pasayishi va uning buzilishiga yo'l qo'ymaslik hisobiga saqlab qolingan mahsulot qiymati ham oldi olingan zararga kiritiladi.

Veterinariya tadbirlarini o'tkazish sarflari ularni amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlarning, ya'ni veterinariya mutaxassislarining mehnatiga haq to'lash, dori-darmonlar, dezinfektsiya vositalari, biopreparatlar, bog'lash materiallari, vositalarni tiklash va ishlatish, binolardan, mashinalardan foydalanish, inshootlarning veterinariya-sanitariya remonti, mahsulotlarni zararsizlantirish va boshqa sarf-xarajatlar.

Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi deganda, chorvachilikda oldi olingan zarar summasi, mahsulot miqdorini ko'paytirish va sifatini oshirish hisobiga qo'shimcha olingan qiymati, tadbirlarni o'tkazishda yangi vositalar va

usullarni qo'llagish natijasida mehnat hamda moddiy chiqimlari tejalishi va ishlab chiqarishning turdosh tarmoqlarida tejamkorlik tushuniladi.

Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlardan tashkil topadi: mollar o'limi, ularni majburan so'yilishi, yo'q qilishni kamaytirish yoki to'xtatish natijasida oldi olingan zarar; mahsulot va tirik vazn nobudgarchiliklari qisqartirilishi; chorva naslli qiymati; mol mahsuloti va xom ashyosi sifatining pasayishiga yo'l qo'ymaslik; bolalashdagi nobudgarchiliklarning kamayishi; ishchi hayvonlar bekor turishga yo'l qo'ymaslik.

- rasional foydalanish, yanada samarali vositalar, preparatlar, usullardan foydalanish hisobiga epizootiyaga qarshi, veterinariya-sanitariya davolash profilaktika tadbirlari uchun ketgan moddiy va mehnat resurslarini tejash;

- massasini ko'paytirish hisobiga qo'shimcha olingan mol mahsuloti va xom ashyosining qiymati;

- mahsulot sifatini oshirish hisobiga olingan qo'shimcha qiymat;

- kompleks veterinariya tadbirlarini amalga oshirish natijasida ishlab chiqarishning turdosh tarmoqlarida erishilgan tejam;

- mollar kasalliklarini oldini olish va ularga barham berish natijasida sog'liqni saqlashda hamda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida barpo yetiladigan iqtisod.

Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini ayrim xo'jalik, tuman, viloyat, o'lka, respublika, mamlakat miqyosida aniqlanadi. Xo'jalik, tarmoq va xalq xo'jaligi bo'yicha iqtisodiy samaa farqlanadi. Xo'jalik bo'yicha iqtisodiy samara bitta yoki ko'proq xo'jaliklarda hisoblanadi. Tarmoq bo'yicha iqtisodiy samara tarmoq miqyosidagi olingan samaralar yig'indisidir. Ikki va undan ortiq

tarmoqda olinadigan samaralar yig'indisi xalq xo'jaligi bo'yicha iqtisodiy samara deyiladi.

Iqtisodiy hisob-kitoblarning vazifasiga bog'liq holda faraz qilinuvchi, kutiruvchi, rejalashtiriluvchi va amaldagi iqtisodiy samara aniqlanadi. Faraz qilinuvchi iqtisodiy samara veterinariya tadbirlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish bosqichida belgilanadi. Kutiluvchi iqtisodiy samara yakunlangan ilmiy tadqiqot ishlariga doir ilmiy tavsiyalarni iqtisodiy asoslash uchun hisoblanadi. Rejalashtiriladigan iqtisodiy samara yangi veterinariya tadbirlarini joriy etishning besh yillik va yillik rejalarini ishlab chiqish samarasi bilan aniqlanadi. Amaldagi iqtisodiy samara xo'jalik, tuman, viloyat, o'lka, respublika vamamlakatda veterinariya tadbirlari o'tkazishning natijalari bo'yicha belgilanadi. Bir so'mlik chiqimning iqtisodiy samarasi veterinariya tadbirlarini amalga oshirishga sarflangan veterinariya mutaxassislari mehnatining unumini, shuningdek ana shu maqsadlar uchun foydalanilgan moddiy pul sarflarini xarakterlaydi.

Veterinariya mutaxassislari mehnatining unumdorligi deganda, ular mehnati samaradorligi darajasi tushuniladi. u ish vaqti birligi yoki ish hajmi birligida sarflangan ish vaqti miqdorida bajarilgan ish hajmi bilan o'lchanadi.

Veterinariya tadbirlari samaradorligining jamlangan indeksi turli xo'jaliklardagi tadbirlarning samaradorlik darajasini, mollarning kasallanishi, oldini olish va ularni davolash usullari turli usullari hamda vositalarning samaradorlik darajasi, shuningdek veterinariya tadbirlarining yillar bo'yicha iqtisodiy samaradorligini xarakterlaydigan umumlashtiruvchi statistik ko'rsatkichlaridir.

Mollar kasalliklari yetkazadigan iqtisodiy zarar va uni hisoblab chiqish uslubi. Qishloq xo'jalik hayvonlarining kasalliklari turli ko'rinishda iqtisodiy zarar yetkazadi. Ko'pgina yuqumli va yuqumsiz kasalliklarda o'lim yuz beradi,

ko'pincha davolash vositalari yo'qligi sababli yoki kasallik tarqalishini to'xtatish maqsadida majburan so'yish va mollarni yo'q qilish zarurati paydo bo'ladi.

Mol o'limi, uni majburan yo'q qilish, majburan so'yishdan keladigan iqtisodiy zarar. Mollarning xarid narxlaridagi qiymatini (yoki nasldor chorva narxidagi qiymati) bilan so'yish mahsulotlarini realizasiya qilish yoki jasadlaridan foydalanishdan olingan pul o'rtasidagi tafovut tarzida xisob-kitob qilinadi.

Yoki hayvonlar o'limi, ularni majburan so'yishda iqtisodiy talofatlar bu hayvonlarning xarid narxlaridagi qiymatiga qaraganda ko'proq bo'ladi, chunki bola olish va yosh hayvonlarni parvarishlashga ancha ko'proq mehnat va moddiy resurslar sarflanadi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jalik yosh hayvonlar o'limi, majburiy so'yish yoki yo'q qilish (buzoqlarni 6 oygacha, cho'chqa bolalarini, qo'zchalarni 6 oygacha) iqtisodiy zarari yosh hayvonlarning o'limi, majburan so'yish yoki yo'q qilish kunidagi amaliy qiymatini hisobga olgan holda belgilanadi.

5. Hayot faoliyat xavfsizligi

5.1. Mehnatni muhofaza qilish

Mehnatni muhofaza qilishni tashkil etish tegishli qoida asosida olib boriladi.

Ishga qabul qilishda muhandis xavfsizlik qoidalari bo'yicha instruktaaj o'tkazadi. Bunda ichki qonun-qoidalar, ishlab chiqarish sanitariyasi, tozaligi, elektr energiyasi va yong'inga qarshi tadbirlar, maxsus kiyimlarni saqlash, mollarni fiksasiya qilishda xavfsizlik qoidalariga e'tibor berish to'g'risida tushuntirish olib boriladi.

Kirish instruktaajlarining kartochkasi kadrlar bo'limida saqlanadi. Ish joyidagi instruktaajlar esa doimiy jurnalda qayd qilib boriladi. Mehnatni muhofaza qilish muhandisi ishchi komiteti bilan birgalikda mehnat sharoitini yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqadi va xuddi ish tadbirlar uchun xarajatlarni nazorat qilib turadi. Xo'jaliklarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha maxsus kabinet bo'lib, unda maxsus plakatlar, adabiyotlar, asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Mehnatni tashkil etishdagi katta e'tibor elektr agregatlaridan foydalanishga qaratiladi. Albatta, dastlab elektr agregatlarini o'rnatishga e'tibor beriladi, nazorat qilinadi. Jun qirqish punkti xo'jaliklarning sharq tomonida bo'lib, markaziy molxonadan 2 km uzoqlikda bo'lishi kerak. Punkt quruq, keng binoda, jun qirqish yog'ochli stollarda o'tkazilib, uzunligi 30 m bo'lishi lozim. Elektromontyor doimo

punktda bo'lib, sistematik tarzda izolyasiyalarning holati, elektrodvigatellarni ishlashini nazorat qilib turishi kerak. Punktda ishlovchilar xavfsizlik qoidalari bilan yaqindan tanishtiriladi. Xo'jalikda tibbiyot xizmati yaxshi tashkil yetiladi. Poliklinika xodimlari tez-tez oshxonalarni, do'konlarni sanitariya ahvolini tekshirib turadilar, ishchilarni, xizmatchilarni va mahalliy aholini yuqumli kasalliklarga qarshi yemlab turadilar.

Xo'jalikning diqqat markazida yong'inga qarshi profilaktik tadbirlar turadi, albatta. Yong'inga qarshi mitalar (maxsus yashiklar) albatta tayyor holatda turadi.

Bizlarning fikrimizcha, biz tajriba o'tkazgan xo'jalikda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud edi. Masalan, ba'zi brigadalarning territoriyasi qisman ko'kalamzorlashtirilgan, veterinariya punkti, yotoqxona atrofidagi territoriyada tartibsizlik, xavfsizlik qoidalariga kam e'tibor berilgan. Maxsus cho'milish dushlari, maxsus kiyim saqlanadigan shkaflar mavjud yemas.

Mehnatni muhofaza qilish xarajatlari to'g'risidagi hujjatlarni tahlil qilganimizda quyidagilarni aniqladik: Xarajat summasi quyidagicha taqsimlangan: 10 % ni texnika xavfsizligi uchun, 20 % ishlab chiqarish sanitariyasi uchun, 15 % tashkiliy tadbirlar uchun, 15 % li esa sport va fizkultura tadbirlari uchun.

Xo'jalikda baxsiz hodisalarni hisobga olish va qayd qilish uchun maxsus jurnaldan foydalaniladi. Oxirgi uch yilda baxsiz hodisa yuz bermagan.

Xizmat qiluvchi xodimlar maxsus kiyimlar bilan (kombinezon, fartuklar, oyoq kiyimi, himoya ko'zoynaklar va h.k.) ta'minlangan.

Maxsus ovqatlantirish yo'lga qo'yilmagan.

5.2. Fuqarolar mudofaasi

Fuqaro mudofaasining asosiy vazifasi favqulodda holatlar (sel, bo'ron, suv toshqini, tog' ko'chkisi, atom quroli, kimyoviy, bakteriologik qurol, zilzila) yuz

berganda aholini, ularning chorva mollarini, qishloq xo'jalik yekinlarini muhofaza qilishga qaratilgan.

Q/x mutaxassislari favqulotda holatlarda o'z yo'nalishi bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Favqulotda holatlar yuz berganda (veterinariya vrachlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi. Yadro quroli qo'llanilish xavfi e'lon qilingan paytda:

1. Mavjud binolar hayvonlarni himoya qilish uchun tayyorlanadi;
2. Hayvonlarni qanday himoya qilish yo'llarining mavjudligini aniqlash;
3. Mavjud bo'lgan yem-xashakni qanday qilib himoya qilish mumkin, uning qanday yo'llari mavjud;
4. Hayvonlarni radioaktiv nurlanish, kimyoviy va bakteriologik qurollar ta'siridan himoyalash uchun zarur bo'lgan birinchi darajali ishlarni amalga oshirish;
5. Hayvonlarni veterinariya ishlovidan o'tkazish kabi birinchi darajali tadbirlarni amalga oshirish;
6. Hayvon go'shti va mahsulotlarini VSE dan o'tkazib xulosa berish.

Hujum xavfi tug'ilishi bilanoq xo'jalikdagi molxonalar va boshqa chorva binolari chorva mollarini himoya qilish uchun tayyorlanadi. Dag'al xashak va shirali oziqalar berkitiladi. Yalpi qirg'in qurolining ta'sirini yo'qotish uchun kerakli yehtiyot choralari ko'riladi va zararlanish manbaida ishlash uchun q/x texnikasi tayyor holatga keltiriladi. Hayvonlar uchun himoya vositalari asosan zotli hayvonlar hamda qoramollarni zararlanish zonasidan olib o'tish uchun oldindan belgilab qo'yiladi. Qoramollar va yilqilarning nafas olish hamda ovqat hazm qilish

organlarini himoya qilish maqsadida materiallardan qo'lda oddiy usulda niqoblar tayyorlanadi. Himoya niqobi korpus, bog'lash moslamasi va tasmalaridan iborat. Niqob korpusi va tagligi 3 qavat to'qima materialidan tikilgan, orasiga chang o'tkazmaydigan filtrlovchi materiallar qo'yiladi.

Zararlangan hayvonlarni davolash. Bakteriologik qurol ta'sirida zaharlangan hayvonlarni himoya qilishda vaksinalash va hasharotlar, kanalar, kemiruvchilarga qarshi kurash tadbirlari katta rol o'ynaydi. Hayvonlarni o'z vaqtida o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi spesifik vaksinalar bilan davolash, shu kasalliklarning paydo bo'lishini va tarqalishini oldini olish mumkin. Bunday yemlash ishlari, kasalliklarning oldini olish usullari iloji boricha dushman bakteriologik qurol ishlatish yehtimoli bor bo'lgan joylarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Biroq bu tadbirlarni oldindan o'tkazish ba'zi bir qiyinchiliklar tug'diradi, chunki dushman tomonidan qaysi kasallik tarqatuvchi bakteriyalar qo'llanilishini oldindan bilish mumkin yemas. Bundan tashqari, ba'zi bir yuqumli kasalliklarga qarshi spesifik vaksinalar (manqa, cho'chqalar afrika o'lati) va zardoblar yo'q.

Yadro qurolidan shikastlangan hududlarda mollarni va yem-xashaklarni qutqarish ishlari. Yalpi zararlanish zonalarida SNAVR olib borish katta qiyinchiliklarga olib keladi. Chunki katta hajmdagi ishlarni juda qisqa vaqt ichida o'tkazishga to'g'ri keladi. Buzilgan inshootlarda joylarning DMLar bilan zararlanishi va kuchli yong'inlar oqibatida hosil bo'lgan tutunlar bu ishlarni olib borishini murakkablashtiradi. Lekin shunga qaramasdan, yong'inni o'chirish, yonayotgan va qulayotgan molxonalaridagi hayvonlarni qutqarish, ularni xavfsiz joylarga olib chiqish, shikastlangan mollarga tez yordam ko'rsatish hamda yem-xashakni saqlab qolish va yenergiya sistemasini tiklab qolish kerak.

6. Menejment asoslari

Menejment bu – inglizcha so'z bo'lib, ingliz tilining Oksford lug'ati-da berilgan ta'rifga binoan u: boshqaruv hokimiyati va san'ati; resurslar-ni boshqarish bo'yicha alohida mohirlik vama'muriy ko'nikmalar tunshuniladi.

Boshqacha soʻz bilan aytganda, menejment bu – boshqaruv, yaʼni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni koʻpaytirish jarayonidir.

Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Bizning mustaqil Respublikamiz jadal rivojlanayotgan mamlakat boʻlib, uning iqtisodiy salohiyatida qishloq xoʻjaligi muhim oʻrinni egallaydi. Bundan bir necha yillar muqaddam mustaqillikning qoʻlga kiritilishi bozor iqtisodiga oʻtish islohotlari, mehnatni tashkil etish hamda agrosanoat majmuida ishlab chiqarishni boshqarish va tashkillashtirishning yangi shakllarining hosil qilinishi dehqon va fermer xoʻjaliklari tarmoqlarining kengayishi rivojlangan ilgʻor davlatlarning tajribalari bilan yaqindan tanishish va ularning ichidagi eng samaradorlarini ishlab chiqarishga joriy etishni talab yetadi.

Oʻzbekiston Respublikami iqtisodiy mustaqillik borasida butun dunyo tajribasi va mamlakatimizning tarixiy rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olib, bozor iqtisodiyotiga oʻtishning oʻziga xos modelini yaratdi.

Agrosanoat majmuida ishlab chiqarishni boshqarish va tashkillashtirish jarayonining bosh maqsadi mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini qondirish uchun moʻl-koʻl qishloq xoʻjalik mahsulotlari etishtirish hamda sanoatimizga talab darajasidagi xom-ashyo negizini yaratish eng muhim masala hisoblanadi.

Boshqaruv usullari bu – xodimlarga va umuman, ishlab chiqarish jamoalariga taʼsir koʻrsatish usullari boʻlib, bu usullar qoʻyilgan maqsadlarga yerishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarining faoliyatini uygʻunlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullari boshqarish usullari tizimida alohida o'rin tutadi. Bu usullarga:

- boshqarish apparatining muayyan strukturasini tuzish;
- har bir boshqaruv bo'g'inining funksiyalarini belgilash;
- kadrlarni to'g'ri tanlash;
- buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish, ularning bajarilishini nazorat qilish;
- topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarni qo'llash kiradi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar yuqori organlar hokimiyatiga va quyi organlarning bo'ysunishiga asoslanadi. Shuning uchun ularni ko'pincha ma'muriy usullar deb yuritiladi.

Rahbarlarning ishchanlik va ma'naviy-madaniy xislatlarini baholash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bunda birinchi o'rinda ye'tiqodlilik, topshirilgan ish uchun shaxsan javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik, kishilarga nisbatan mehribonlik va e'tibor bilan munosabatda bo'lish turadi.

Rahbarlik uslubi, belgisi va bo'ysinuvchilarga nisbatan munosabatiga qarab, barcha rahbarlarni quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Avtokratik rahbarlar.
2. Liberal rahbarlar.
3. Demokratik rahbarlar.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni sanoat negizida o'tkazish bu hozirgi bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy dolzarb vazifalarning biri hisoblanadi.

Chorvachilik mahsulotlarini sanoat usulida ishlab chiqarishning asosiy vazifasi bu - qishloq xo'jalik hayvonlarini biologik imkoniyatlaridan to'liq

foydalanish hamda kam oziqa va mehnat sarflab, yuqori mahsuldorlikga yerishishdan iboratdir.

Chorvachilik sohasini boshqarishni tashkil etish va ularni boshqarish organlarining strukturasi qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini boshqarishni tashkil etishga o'xshashdir. Qoramolchilik fermalari, cho'chqachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalarida asosiy ishlab chiqarish bo'linmasi sanoat korxonalaridagi kabi sexlar hisoblanadi.

Fermada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ferma boshlig'i zimmasiga yuklatilgan bo'lib, u fermada javobgar shaxs hisoblanadi. Fermadagi barcha ishchi xizmatchilar unga bo'ysunadilar.

Xo'jalik kerakli mutaxassislar bilan ta'minlangan bo'lib, ular rahbariyat tomonidan tuzilgan reja asosida doimiy ravishda o'z malakalarini oshirib keladilar.

Umuman olganda xo'jalikda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xo'jalikning rahbari zimmasiga yuklatilgan.

7. Xulosalar

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida bizlar quyidagi xulosaga keldik:

1.Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyati Payariq tumani Do'stlik shirkat xo'jaligida va aholining shaxsiy qo'ylari orasida trixostrogilyoz kasalliklarining tarqalishi darajasi ancha yuqori. Buning sababi keyingi yillarda qo'ylarda gelmintsizlantirish ishlari reja asosida olib borilmaganligidir.

2. Bizlarnig tajribalarimizda 10 % li albazen suspenziyasini qo'ylarga bahor va kuz oylarida rejali ravishda berib borilsa qo'ylarning trixostrogilyoz kasalligi bilan zararlanishini oldi olinib, kasallangan qo'ylarning trixostrogilyoz qo'zg'atuvchilaridan to'liq tozalanishi aniqlandi.

3. Qo'ylarni gelminsizlantirishda antigelmintik preparatining samarasi taqqoslanganda albazen suspenziyasining yuqori samara berishi va arzonligi, 1 marta gelminsizlantirish 1800 so'mni tashkil etishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. 1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi PF 1978-farmoni.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent. 2005 y.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qoladi. 2004 yil. Toshkent.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. 2001 yil. Toshkent.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch asari. 2004 yil. Toshkent.
6. Karimov I.A. "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarilari chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006 yil 23 mart 308-qarori.

7. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolini chuqurlashtirishning asosiy konsepsiyasi. Toshkent. 2011 yil. 17 yanvar.
8. Bekirov R.Ye., Azimov Sh.A., Oripov A.O. It sestodozlarini davolashda granulalarning samaradorligi. Veterinariya, 1979, № 8. 40-51 b.
9. Burdjanadze P.L., Baratashvili A.K. K rasprostraneniyu glistnykh zabolevaniy domashnykh jivotnykh v Aljarskoy ASSR nekotorykh rayonax zapadnoy Gruzii. Tr. Gruz. NIVOS, t. III s. 95-98.
10. Vadachkorma L.K. O mexanizme deystviya bentonitov na pokazateli KPD kormov i udobreniy. // Сыревая база bentonitov SSSR. Ix ispolzovaniye v narodnom xozyaystve. M. Nedra. 1972. s. 169-176.
11. Davlatov N.Sh. Pogluyeniya gossipola Azkarmarskim bentonitom. Problemy morfologii i parazitologii. Nauchniye trudi Moskovskoy Meditsinskoy Akademii imeni I.M. Sechenova. M. 1992. s. 99-105.
12. Davlatov N.Sh. Tovuqlarni gossipol bilan zaharlanishini oldini olishda Azkamar gilmoyasidan foydalanish to'g'risida tavsiyanoma. Toshkent. 1992.
13. Zokirov M.Z. Primneneniye bentonitovix glin v jivotnovodstve i perspektivi ix ispolzovaniya v Uzbekistane. // Uzb. biol. junral. 1990. № 6. s. 16-19.
14. Irgashev I.X. Deystviye fenotiazina i mednogo kuporosa pri sistematicheskoy skarmlivanii na gelmintov oves i na balans mikroelementa medi v organizme. Tezisy dokl. konf. Vogan. 1972. g. 2. s. 24-26.
15. Irgashev I.X., Xolmatov Sh.M. Rekomendatsii po borbe s osnovnymi gelmintozami oves v Uzbekistane. // Gelminty pishchevyykh produktov. Tezisi dokl. Mejresp. Nauch. konf. Samarkand, 1972. s. 163-164.
16. Irgashev I.X., Jabborov A.R., Tayloqov T.I. Qo'ylar gelmintozlarining yangi guruhli profilaktikasi. // Materiali konferentsii nauchnix otchetov prof. prep. i aspirantov SamSXI. Samarkand. 1995. s. 207.

- 17.Irgashev I.X., Tayloqov T.I. Chorvachilikda antigelmintikli mineral tuzli yalamani qo'llash. //Sbornik nauch.trudov molodyx uchenykh i specialistov SamSXI. Samarkand 1997. s.167-175.
- 18.Irgashev I.X., Tayloqov T.I. Antigelmintikli mineral tuzli yalamani qo'llash.//Problemy biologii i meditsiny. Samarkand.1998. № 3. s.108-111.
- 19.Irgashev I.X., Haqberdiyev P.S., Abduraxmonov T.A., T.I.Tayloqov Rintal. Kavshovchi hayvonlarning gelmintozlariga qarshi samarali antigelmintik.// Veterinariya. Samarkand. 2000. № 3. s.17-20.
- 20.Kasitadze B.V., Merabishvili M.S. Iz opyta ispolzovaniya bentonitovix glin v selskom xozyaystve. Gruz. //Bentoniti. M.Nauka. 1980. s.236-241.
- 21.Kasitadze B.V., Gogitashvili G.G. Obzor zarubejnogo opyta ispolzo-vaniya bentonitov v selskom xozyaystve i vozmojnostey osvoyeniya dlya etoy seli otechestvennoy syrevoy bazi. // VNII gelol.turud. 1988. s 58.
- 22.Mamayev N.X., Davudov D.M. Qo'y strongilyatozlariga qarshi yemli granulalarni qo'llash. Veterinariya j., 1978 № 6, 69 b.
- 23.Nasimov Sh.N. Parazitosenoz koz i sobak, vyzvanniy teniidami i sarkosporiyami.// Profilaktika i lecheniye invazionnix bolezney v usloviyax jarkogo klimata. Mejevuzovskiy sbor.nauch.trudov. Toshkent. 1990, s.5-9.
- 24.Nasimov Sh.N. Echki va itlarning teniida va sarkosporiyalar tomonidan chaqirilgan parazit osenozi. Vet.fan.nom.diss..avtoreferati. Samarqand, 1991.
- 25.Norboyev Q.N. Toksicheskaya distrofiya pecheni u oves pri otkorme. Avtoref.Diss...dok.vet.nauk.Sanut-Peterburg.1991.
- 26.Norboyev K.N., Eshburiyev B.M. Professor-o'qituvchilar va aspirant-larning 51 chi ilmiy hisobot konferensiyasi ma'ruzalar mazmuni. Samarqand, 1993, 79 b.
- 27.Norboyev K.N., Eshburiyev B.M. O'stirish davridagi buzoqlarning klinik va gematologik ko'rsatkichlari.// SamQXI professor-o'qituvchilar va aspirantlarning 52 chi ilmiy hisobot konferensiyasi ma'ruza matni. Samarqand. 1993. 30 b.

- 28.Norboyev Q.N., Boymurodov T.B., Eshburiyev B.M., Xaqqulov A. Rekomendasii po ranney diagnostike patologii pecheni u oves pri promyshlennom otkorme. Tashkent. 1989. s.9-11.
- 29.Oripov A.O., Sadikov A.M. Izucheniye deystviya nekotorykh antigel-mintikov na yaysa i lichinki marshallagiya. Materiali 7-y konf. molodykh uchenykh Uzbekistana po s/x (veterinariya). 1973.
- 30.Oripov A.O., Petrosyan A.S. Gruppovoy metod degelmintizatsii oves nilvermom. 1974. J.Veterinariya. № 3, s. 64-65.
- 31.Oripov A.O. Qo'ylarni strongilyatozlarga qarshi gelmitsizlantirish. Veterinariya j. 1978. № 4, 74-76 b.
- 32.Oripov A.O. Rasprostranennost marshallagioza oves v Ubekistane. II Tez. dokl. nauch. konf. poyev, pamyati N.V.Badaninna. 1968. s 1-103.
- 33.Oripov A.O. Marshallagioz oves. // J. Selskogo xozyaystva O'zbekistana. 1969. № 8. S. 54-55.
- 34.Oripov A.O., Petrosyan A.S. Gruppovoy metod degelmintizatsii nilvermom. // J. Veterinariya. 1974. № 3. S. 64.
- 35.Oripov A.O. Degelmintizatsiya oves protiv strongilyatozov lechebno -kормовым granulami. /U Tez. dokl. tr. UzNIVI. - Toshkent, 1978.
- 36.Oripov A.O.Sravnitelnaya effektivnost nilverma pri raznykh podax yego primeneniya. // Tez. dokl. tr. UzNIVI. - Toshkent,1979. s 85.
- 37.Oripov A.O. Printsipy razrabotki i perspektivy metodov gruppovoy degelmintizatsii jivotnykh. // Tez. dokl. nauch. konf. VOG. 1980. Maskva, 1980. s 78-82.
- 38.Oripov A.O. Sroki razvitiya i priyivayemost trixostrogilid organizme oves pri «chistyx» i smeshannykh invaziyaх. // Tez. dokl. UzNIVI. 1982. -Toshkent, 1982. s 64-69.

39.Oripov A.O. Trixostrogilidozы oves v Uzbekistane i меры борбы s nimi.: Avtoref. dis... dok. vet. nauk-M., 1983. -24s.

40.Oripov A.O., Seredkin V.A. Ekonomicheskiy ущyerb pri trixostrogilidozax oves v Uzbekistane // Invazionnyye bolezni selskoxozyaystvennyx животных i ptisy: Tez. dokl. nauch. konf. 1986. - Tashkent. 1986. s 43-55.

41 Oripov A.O., Seredkin V.A. Ekonomicheskaya effektivnost lechebno-profilakticheskix meropriyatii protiv trixostrogilidozov oves. Aktualnyye prblemy veterinarnoy nauki i praktiki: Tez. nauch. konf. 26-V mart 1987. - Samarkand, 1987. s 106-108.

42.Oripov A.O., Bekirov R.E., Djumayev Z.D. Degelmintizasiya животных lechebno-kормовых granulami i kormolekarstvennyx smesyu. // Tez. dokl. UzNIVI SAO, VASXINIL. 1990. -Tashkent, 1990. s 75.

43.Oripov A.O., Saruxanyan G.D. Izucheniye nekotoryx parametrov toksichnosti asetomizola dlya kрыs i krolikov. // Tez. dokl. nauch. tr. Uz11IVIL991. - Tashkent, 1991. s 63.

44.Oripov A.O., Daniyarov I.A., Yuldashev N.E., Namanchayev I. Испытаниye nekotoryx preparatov protiv gelmintozov oves // Problemy izыskaniya, sinteza i proizvodstva novyx preparatov dlya veterinarii: Tez. dokl. nauch. konf. - Samarkand, 1994. s 75.

45.Oripov A.O., Yenileyeva N.X. Испытаниye asetomizola protiv gelmintozov loshadey. // Tez. dokl. nauch. konf. UzNIVI. - Samarkand, 1994. s 74.

46.Oripov A.O., Xolmatov M.X., Namanchayev I, Yuldashev N. Ant-gelmintnoye aktivnost nekotoryx preparatov iz gruppy benzimidazolona.

Tez. dokl. nauch. konf. 1994. - Samarkand, 1994. s 75.

- 47.Oripov A.O., Djabborov Sh.A. Razrabotka novyx antgelmintno solevyx smesey protiv gelmintofov oves // O'zbekistonda qishloq xo'jalik xayvonlar kasalliklariga qarshi kurash va oldini olish tadbirlari: Il. maq, to'p. 2000. Samarqand, 2000. s 68-72.
- 48.Oripov A.O., Namanchayev I. O'zbekistonda qo'y va qoramollar gelmintozlarining tarqalishi. // O'zbekistonda qishloq xo'jalik hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash va oldini olish tadbirlari: Il. maq, to'p. 2000. Samarqand, 2000. b 72-76.
- 49.Pirnazarov D.Ye., Nazarov Sh.N. va b. Mahalliy gilmoyalar yordamida gossipolni adsorbsiya qilish.// Yosh olimlar va aspirantlarning ilmiy konferensiyalar materiallari. SamQXI. 1994. 28 b.
- 50.Рыбина Ye.B., Chola V.D., Mirsaidov M.M. i dr. Povysheniye produktivnosti kur-nesushek pri primeneniі bentonita podobnykh glin v jarkiy period. T. 1987. s.11.
- 51.Sыsoyev I.V., Pulatov A.P., Dustova R.T. Granulalashtirilgan antigelmintiklarning tovuq organizmiga ta'siri. O'z VITI ilmiy maqolalari.1981. 30 t. 2 qism 89-92 b.
- 52.Tayloqov T.I. Chorvachilikda antigelmintikli mineral tuzli alamani qo'llash.// Sbornik nauch.trudov molodix uchenix i specialistov. SamSXI. Samarkand. 1998. s.58-66.
- 53.Tayloqov T.I. Qo'ylar gelmintozlarining yangi guruhli profilaktikasi.// Problemy biologii i medisinы. Samarkand. 1998. № 3 s.92-95.
- 54.Taylokov T.I. Rezultati primeneniya antigelmintno-solevogo lizunsa pri strongilyatozax oves.// Materialы Vserossiyskoy medisinы. Sbornik nauch.trudov, Omsk, 2000, s.149-151.
- 32.WWW.vyeyetyer-myed.ru.
- 33.Zio.nyet.uz.

34.yemail: Vyetyerinariya.

35.@ atovis.ru.

36.WWW.vyett-myed.ru.

37.WWW.Ramblyer.

Internet ma'lumotlari